

Nazir ota g'alati tush ko'rib uyg'ondi. Tushiga xotini kiribdi. Katta tog' emish. Bir yog'i olmazor, bir yog'i shaftolizor. Orqada daryo. Xotini shu daryo labida turib uni imlayotganmish. Boribdi. Endi qo'lini cho'zgan ekan, xaxolab o'zini suvga tashlabdi-yu, suzib ketibdi. Nazir ota ham tushibdi. Ammo qancha harakat qilmasin, unga yetolmabdi. Chaqiraman desa, ovozi chiqmashmish. Xotini esa: "Yetolmaysiz! Yetolmaysiz!" - deb, hiring-xiring kularmish. "Zaynab mazax qilmasdi meni. Bu nimasi?!" - O'ylabdi Nazir ota. Oxiri madori qurib, qirg'oqqa chiqibdi. Chiqib asta boshini ko'tarsa, oldida yana xotini turgan emish. Ustida no'xat gulli ko'ylagi, oyog'ida payg'ambar yoshiga kirganda o'zi olib bergan amirkon mahsi-kavushi. Ammo bosh yalang. Sochlari to'zg'ib ketgan... U nuqul:

- Charchab ketdingiz-a, dadasi? Charchab ketdingiz. Mening kiyimlarim qani, mening kiyimlarim? Xudo urib, tag'in Tursin kiyib yurmasin! - dermish...

Nazir ota bu tushning ma'nosiga yetolmay anchagacha o'ylanib yotdi. U juda kamdan-kam tush ko'rardi. Ko'rsa ham bema'ni, xayolida yo'q narsalarni ko'rardi, xotinini ko'rmasdi. Nima bo'ldiykin? Nega u kiyimlarini axtarib qoldi? O'g'lini nega tilga oldi? U, qancha o'ylamasin, hech narsa tushunolmadi. Oxiri qovoqlari og'rib, ko'zlarini yumdi, uxlashga harakat qildi. Ammo uyqu kelmadi. U biqiniga ag'darildi, bu biqiniga ag'darildi, foydasi bo'lmadi, qulog'i tagida xotining gaplari jaranglab turaverdi. "Nega bunday dedi? - O'yladi yana Nazir ota ko'zlarini ochib. - Bunda bir hikmat bor. Hikmat bo'lmasa, nega endi tushimga kiradi, bunday deydi? Yilini o'tkazganimga besh hafta bo'ldi. Ha, bugun dushanba bo'lsa, roppa-rosa besh hafta bo'ladi. Nega shu bir yilu besh haftada kirmadi-yu, endi kirdi? Bunda bir hikmat bor".

Nazir ota shu fikr bilan o'rnidan turdi. Choponini yelkasiga tashlab, hovliga chiqdi. Hali erta edi. Quyoshning nimrang gardishi hovliga tutashib ketgan kolxoz bog'ining ortidan endi ko'rina boshlagan edi. Havo salqin. Qaerdandir kechki bodring hidini keltirib shabada esardi.

Nazir ota hovlining o'rtaidan o'tgan ariq labiga kelib o'tirdi. Muzdek suvdan hovuchini to'ldirib ichdi. U ariq suvini yaxshi ko'rardi. Har kuni ertalab yuvinayotib, bir hovuch-bir hovuch ichmasa ko'ngli joyiga tushmasdi. Bu yoshligidan qolgan odat edi. Kampiri buni bilardi, indamasdi. Nevarasi ham indamaydi. To'g'rirog'i, ko'rmaydi. Chol undan ancha erta turadi.

Nazir ota yuvinib bo'lib, olma tagida osig'liq turgan bedana tagiga keldi. Uni yaqinda to'rqovog'i bilan o'rtog'i, choyxonachi Saksonboy ota bergan. O'lgudek sayroqi. Na kechasi tinim bor, na kunduzi.

Nazir ota oyoq uchida turib, uning don-suviga qaradi.

- Ha, jonivor, bugun jimsan? - dedi to'rqovoqni chertib. - Aynadingmi?

Bedana shuni kutib turgan ekanmi, tumshug'ini ochib, u yoq-bu yoqqa alangladi-da, birdan takillab yubordi. Uning ovozi juda tiniq va baland edi.

- Bormisan?! - dedi Nazir ota jilmayib. - Sayrash bunday bo'libdi-da!

Uning chehrasi yorishib ketdi. Ko'nglini g'ash qilib turgan tushni unutmanganday bo'ldi. O'choq boshiga borib samovarga o't tashladi. Bedana esa qulog'i tarang buralgan patefonday tinmasdan bir ohangda "tak-tarak", "tak-tarak" qilib sayrardi.

Ichkaridan nevarasi chiqdi.

- Tuzuk-ku! - dedi u bedanaga ishora qilib.

- Uyg'otib yubordim seni, Zulay? - so'radi Nazir ota.

- Yo'q, o'zim uyg'onuvdim, - dedi Zulayho. - Sayrashini qarang, tinim bilmaydi-ya!

- Saksonboy menga yomonini beradimi? - dedi Nazir ota g'urur bilan. - Sayroqisini beradi-da. O'zinikini eshitganmisan?

- Yo'q. Choyxonadami?

- Yo'q, uyida. Ovozi ham qurg'ur juda baland. Bundan baland.

- Bu ham yomon emas, - dedi Zulayho. - Sayrashini qarang! Quloqni teshaman deydi.

Nazir ota kuldi.

- Bedana degan shunaqa baland sayrasa-da. Kurk tovuqqa o'xshab kurillagani bo'lmaydi.

- Ovozi o'tkir ekan, - dedi Zulayho. - Choy ichamizmi, dada?

- Ha. Samovarga o't tashlab yuborganman.

- O'zim qilardim, - dedi Zulayho. - Nima qilardingiz?

- Nima qilibdi? Dasturxon yoz.

- Hozir, - dedi Zulayho va uyga kirib ketdi.

Nazir ota ariq ustidagi taxta so'riga chordana qurdi. Bedana tindi. Birdan yana hammayoq jimjit bo'lib qoldi. Qulog'i tagida yana xotining gaplari jaranglay boshladi. Choyni churq etmay ichdi.

- Maktabga borasanmi bugun?- so'radi Nazir ota nevarasidan fотиha o'qib bo'lib.

- Tushdan keyin, - dedi Zulayho. - Nima edi? Zulayho maktab kutubxonasida ishlardi. Buvisi vafot etgandan so'ng buvasini yolg'iz tashlab ketgisi kelmadi. Qishloqda qoldi. Institutga sirdan o'qishga kirdi.

- Ishingiz bormidi menda?- so'radi u yana buvasining o'ylanib qolganini ko'rib.

- Oyingning uyini ko'tarsak, - dedi Nazir ota.

- Nega? - Zulayho hayron bo'lib so'radi.

Nazir ota nima deyishini bilmay qoldi. Tushini aytgisi kelmadi. O'ziga o'xshab nevarasining ham tushga ishonmasligini bilardi.

- Namiqib ketibdi, - dedi nihoyat tuzuk bahona topganday ishonch bilan. - Bir shamollataylik. Innay-keyin, kerak bo'ladi.

Nega kerak bo'ladi? Zulayho tushunmadi. Lekin e'tiroz bildirmadi.

- Mayli, - dedi dasturxonni yig'ishtirarkan. - Nima ham bor edi u uyda? Birpasda yig'ishtirib chiqaman.

- Men qarashib yuboraman, - dedi Nazir ota. - Bir o'zing kirma.

- Nega? - hayron bo'ldi Zulayho.

Nazir ota indamadi. Ko'z oldidan xotining imlagani o'tdi. "Cho'chiysan" deyishiga tili bormadi, ammo boshqa bahona ham topolmadi.

Zulayho ichkaridan boshiga doka tang'ib chiqqanda, Nazir ota xonani ochayotgan edi. Ular ichkariga kirishdi.

Bu - derazasi poldan shipgacha ko'tarilgan, hovliga qaragan, yorug', chorsi xona edi. Zaynab xola umrining so'nggi yillarini shu xonaga ko'chib chiqib o'tkazdi. Uni er-xotin o'g'illariga institutga kirganda ajratib berishgan edi. Uning ashqol-dashqollari, bo'yradek-bo'yradek chizma qog'ozlari ko'p edi, alohida xona bo'lmasa bo'lmasdi. Ammo u bu xonada ko'p yashamadi, to'rt yilcha yashadi, keyin urushga ketdi. O'sha yili xotini tug'di. Lekin kelin bechoraning umri qisqa ekan, tug'di-yu o'ldi. Nevarasini Zaynab xolaning o'zi katta qildi. O'tgan yili bahorda qulupnay terib turib, birdan o'zidan ketib qoldi. Nazir ota so'riga yotqizdi. O'ziga

kelgach, bitta-bitta yurib, o'g'lining xonasiga kirib ketdi. Shu-shu umrining oxirigacha shu xonadan chiqmadi. Nega u shu yerni tanladi, o'z xonasiga bormadi o'shanda - Nazir ota haligacha tushunolmaydi. Kim biladi, balki o'lishini sezib, o'g'limga yaqinroq bo'lay, deganmi? Tuzuk bo'lgan kunlari u qurib, terisi suyagiga yopishib ketgan qo'llarini derazaga tirab, hovliga qarab o'tirishni yaxshi ko'rardi. Hovli esa, qarasa arzirdi. Uning oldi ketgancha gulzor. Yozda oq, sariq, pushti gullar ochilib, chamandek bo'lib yotardi. Uning orqasidan shildirab ariq oqardi. Ariqning narigi beti kolxoz bog'iga tutashib ketgan qulupnay. Devor tomonda to'rt tup qora olxo'ri bor. Zaynab xola olxo'riga o'ch edi. Dumbul bo'lganidan tortib yerdi to pishib yetilguncha. Qolganini murabbo qilardi.

- Nimadan boshlaymiz? - so'radi Zulayho alanglab. Nazir ota javob bermadi. Anchadan beri kirmagani uchunmi, xonadagi narsalar unga yangidek tuyuldi. Bir boshdan qarab chiqdi. Yo'q, hammasi tanish narsalar. Nega tanish bo'lmasin ham?! Tokchada kampiri Tursunni ko'rganda Toshkentdan olib chiqqan ikki kalitli quti. Burchakda o'g'lining qiyshiq stoli. Ikkinchi tokchada esa, uning har qayoqdan yig'ib kelgan har xil toshlari. Taxmonda, po'lat sandiqning ustida kampirning ko'rpa yostig'i. Yana nima bor? Ha, gilam. Xonaning yarmiga ham yetmagan eski gilam. Boshqa deyarli hech narsa yo'q.

- Ko'rpani olib chiqib yoyaymi? - so'radi Zulayho bobosining o'ylanib qolganini ko'rib.

- Mayli, shunday qila qol, - dedi Nazir ota. - Kel, men ko'tara qolay.

- Yo'q, og'irmas.

Zulayho ko'rpani ko'tarib olib chiqib ketdi. Nazir ota sandiqni ochdi. Mog'or hidi gup etib dimog'iga urildi, aksirib yubordi. Sandikda burchakka surib qo'yilgan tugundan boshqa hech narsa yo'q edi.

- Nima ekan? - so'radi Zulayho kirib.

- Tugun. Qani, olchi.

Zulayho tugunni olib yechdi. Bu - erkaklarning kostyum-shimi edi.

- Siznikimi? - so'radi Zulayho.

- Yo'q, - dedi hayron bo'lib Nazir ota. - Mening bunaqa kiyimim yo'q.

- Yap-yangi-ya! - Zulayho kostyumni qokdi. - Narxi yozilgan qog'ozi ham bor.

"O'g'liga olgan ekan-da, - xayolidan o'tkazdi Nazir ota. - Lekin qachon olgan ekan? Menga aytmabdi...".

- Yey, mog'orlaganga o'xshaydi, - dedi u nevarasiga. - Kuya yemaptimi?

- Yo'q, tuppa-tuzuk turibdi.

- Mayli, yoy.

Nazir ota sandiqni yopdi. Keyin gilamni o'rab, hovliga olib chiqdi. Qaytib kelganda Zulayho tokchani oldida turib nimanidir tomosha qilardi.

- Nima qilyapsan? - so'radi Nazir ota.

- Qarang, - dedi Zulayho. - Bilaguzuk!

- Qani?

Nazir ota nevarasining qo'lidan bilaguzukni olib ko'rdi.

- Qaerda ekan?

- Qutida, - dedi Zulayho. - Xuddi shunaqa zirak ham bor. Kumush bo'lsa kerak-a, dada? Yaltirashini qarang!

- Ha, kumush, - dedi Nazir ota taqinchoqlarni ko'rarkan. - Toza kumush.

- Kimniki? - so'radi Zulayho. - Oyimlarnikimi, opamlarnikimi?

- Oyingniki, - dedi Nazir ota eslab. - Yo'qolib ketgan, deb yuruvdim men. Sen tug'ilgandan beri taqmasdi, - u "onang vafot etgandan beri" deb aytolmadi, tili bormadi. - Toshkentning eng yaxshi zargari - Xolparang zargardan buyurtirib olib bergan edim. Tuzukmi?

- Tuzuk ham gapmi! - dedi Zulayho bilaguzukni bobosidan olib qo'liga taqarkan. - Yarashdimi, dada?

- Juda ham, вѢ”dedi Nazir ota nevarasiga havas bilan tikilib. - Taqaqol. Oyingdan meros.

Zulayho ziraklarni changallaganicha chiqib ketdi.

"Xuddi buvisiga o'xshaydi, - O'yladi Nazir ota uning orqasidan qarab qolib, - Rahmatli ham yoshligida shunaqa narsalarga o'ch edi. Shularni olib kelganimda boshi osmonga yetgan edi. Zulay xuddi uning o'zi. Ishqilib, umri o'xshamasin".

Nazir ota yuzlarida qandaydir tabassum bilan qutini tita boshladi. Lekin taqinchoqlardan boshqa chiqmadi. Ikkita munchoqli kichkina qizil duxobadan tikilgan tumor chiqdi. Bu - nevarasini. Bolaligida u semiz, do'mboq edi. Kampir, ko'z tegmasin, deb shu tumorni bo'yniga osib qo'ygan edi. Qandaydir kitoblar bor edi yana qutida. Keyin, naycha qilingan qalin qog'oz. Nazir ota qog'ozni ochdi. Tepasida allaqanday yozuvlar, tagida har xil chiziqlar. Yozuvga ko'zi o'tmadi. Ayvondan ko'zoynagini olib kelib ko'rdi. Bo'lmadi, ko'zi jimirlashib ketdi.

- Zulay! Qayoqda qolding? - chaqirdi u nevarasini.

- Hozir, - dedi Zulayho ichkaridan va ko'p o'tmay keldi. - Qarang?!

Nazir ota unga o'girildi. O'girildi-yu, hang-mang bo'lib qoldi. U nevarasining bunchalik chiroyliligini bilmagan edi. Egnida oq krepedshin ko'ylak, oyog'ida oq tuffli, bir o'rim qalin, zulukdek qora sochi oldiga tushib turibdi, qo'lidagi bilaguzuk, kichkina quloqlaridagi oppoq zirak-lar yaraqlardi.

- Voy-bo'! Juda ko'hlik ekansan-ku?! - dedi Nazir ota o'zini tutolmay. - Xuddi oyingning yoshligiga o'xshaysan!

- Opamlarga-chi? - so'radi Zulayho.

Nazir otaning ichini bir narsa timdalab ketganday bo'ldi.

- Opang... opangga ham o'xshaysan, - dedi o'zini darrov bosib olib. - Opang ham ko'hlik edi. - "Rostdan ham o'xshaydi opasiga, - ko'nglidan o'tkazdi Nazir ota. - Ko'z-qoshlari opasining o'zi. Faqat burni o'g'limga o'xshaydi. Bizning avlodda hammaning burni go'shtdor. Buniki ham shunaqa. Dahani ham bir oz Tursunga o'xshab ketadi, yapaloqroq" - bu fikr ko'nglini ancha tinchitdi shekilli, chehrasi yorishib, qo'shib qo'ydi: - Opangga butun qishloqning havasi kelardi. Juda kelishgan edi opang. Qosh-ko'zi qop-qora. Sochlari taqimiga tushardi. Innaykeyin, nima kiysa yarashardi. Oying qo'rqardi yolg'iz u yoq-bu yoqqa yuborgani. Juda ko'hlik edi. Aytganday, manavini ko'r. Nima ekan bu?

Nazir ota qo'lidagi qog'ozni nevarasiga uzatdi.

- Bilmadim, - dedi Zulayho qog'ozga tikilib. - Qandaydir chiziklar. Xuddi xaritaga o'xshaydi. Tog'ning belgilari bor.

- Tog'ning belgilari bor? - Ha.

- Yozuvida nima deyilgan?

- Yozuvidami? - Zulayho o'qishga harakat qildi. - Harflari o'chib ketibdi. O'qib bo'lmayapti. Qaerdan topdingiz?
- Qutida ekan, - dedi Nazir ota. - Yaxshilab ko'rchi.
- Menimcha, bu nimanidir planiga o'xshaydi, dada. Ha, plan deyilgan yozuvda. Keyin qandaydir harflar: "X", "3". Plan X. 3.
- Plan X. 3.?
- Ha, - dedi Zulayho. - Iya, bu adamlarning yozuvlari-ku?! Tagida familiyalari bor. Tursun... Tursun Nazirov. Nima bo'ldiykin, dada, bu?
- Bilmadim, - dedi hayron bo'lib Nazir ota.
- Biron narsaning planidir-da. Ekspeditsiyaga borganlarida chizganlar. Qo'yib qo'yaymi joyiga?
- Mayli, - dedi Nazir ota unga qo'shilib, - qo'yib qo'y. Uyni yig'ishtirib bo'lishdi. Zulayho kostyumni olib kirib qoziqqa ilib qo'ydi. Ko'rpa-yostiqa tegishmadi. Dasturxonchiga berib yuborishga qaror qilishdi. Lekin Nazir ota gilamni, uy huvillab qolmasin, deb yana solib qo'ydi.
- Men endi maktabga boraman, - dedi Zulayho. - Boyagidek borsam maylimi?
- Mayli, o'sha taqinchoqlar endi seniki, - dedi Nazir ota.
Zulayho ketdi. Nazir ota hovliga tushib, gullarga suv quya boshladi. Ammo xayoli boshqa narsalar bilan band edi.
"Mana, uyingni ham ko'tardik, - dedi ichida. - Endi tinchmisan, Zaynab? Tinch bo'l. Nevarang xuddi o'zingga o'xshaydi. U bor, men bor. Charchaganim ham yo'q. Nega endi charcharkanman? Umridan norozi odam charchaydi. Men charchaganim yo'q. Men umrimdan roziman. Ikkalamiz yaxshi yashadik. Ko'pni ko'rdik. Lekin o'g'limizning rohatini ko'rolmadik. Tursun yosh ketdi. Mozori qaerdaligini ham bilmaymiz. Yosh ketdi bola bechora..."
Shu top bir narsa esiga tushdi. Ketmonni ariqqa botirib, ko'tarilgan xonaga kirdi. Qutini ochib, naycha qog'ozni oldi.
"Tursunning yozuvi, - dedi u xatga tikilib. - Shunaqa yozardi u. Harflari dumaloq. Sal chapga yonboshlagan. Nima bo'ldiykin bu? Nimaning plani ekan? Birona zarur narsa bo'lsa kerak har holda. Lekin yigirma yil o'tib ketdi. Nima kerakligi qoldi ekan?"
Nazir ota shunday o'yladi-yu, "kerak narsa bo'lsa kerak" degan gap miyasiga mahkam o'tirishib qoldi. "Birona bilan maslahatlashish kerak, ko'rsatish kerak", - dedi o'zicha va qog'ozni yana naycha qilib, yaktagi ichiga soldi-da, ko'chaga chiqdi. Qayoqqa borishni birpas o'ylab turdi, keyin to'g'ri choyxonaga yo'l oldi.

* * *

Choyxonada, peshin bo'lib qolganiga qaramay, hech kim yo'q edi. Saksonboy ota o'rtog'ini to'rga o'tqazdi-da, choy olib keldi.
- Mana bu ishing joyida, o'rtoq, - dedi u o'zi ham o'tirib. - Sen bilan bizga endi ishni kim qo'yibdi? Yoshlar ishlasin. Shunday katta bog' qilib berding, bo'ldi. Endi dam ol.
- Hali ham dam olib yuribman, - dedi Nazir ota jilmayib.
- Yo'q, sen kulma, - dedi Saksonboy ota. - Endi bo'ldi. Ilgari ham aytmog'chi edim-ku bu gapni, har holda ovunarsan, deb indamovdim. Mana, yil ham o'tdi. Endi bo'ldi.
- Ha, endi bo'lganga o'xshaydi, - dedi Nazir ota keyingi kunlarda oftob yoqmay qolganini eslab. - O'zing qalaysan?
- Qalay bo'lardim, - dedi Saksonboy ota xo'rsinib. - Bel la'nati tinchlik bermayapti. Na kechasi halovat bor, na kunduzi. Qaqshab og'riydi.
- Shamollatgandirsan-da? - dedi Nazir ota.
- Kim biladi deysan? Hov birda uloqda yiqildim-ku, o'shaning oqibatimikan, deyman.
- Bunga ancha bo'ldi-ku? - dedi Nazir ota. - Yigirma yildan oshdi shekilli?
- Ha, oshdi, вЂ” dedi Saksonboy ota, keyin kuldi. - O'zi ham zap uloq bo'luvdimi o'shanda?!- E, nimasini aytasan, - dedi Nazir ota choy qaytarib. - Bedazorni odam bosib ketuvdi, tumonat odam!.. Qo'shni qishloqlardan ham kelishuvdi-da. Sen o'shanda kimning otini mingan eding?
- O'zimming otim turganda birovnikini nima qilaman? Samanimni minib tushgan edim. Sen, adashmasam, raisning otini mingan eding.
- Ha, to'g'ri. To'riq bor edi-da, raisda. O'zi minmasdi, qo'rqardi. Melini boplaganmanmi o'shanda?!- Nimasini aytasan!
Ikkalovi kulib yuborishdi. Saksonboy ota og'rikdan belini mahkam ushlaganicha qiqirlardi.
- Shoshma, - dedi u kulgidan to'xtab bir mahal, - sen qaysi Melini aytayapsan?
- Meli cho'tirni-da. Qumariqlik, - dedi Nazir ota.
- Qumariqlik? - so'radi eslolmay Saksonboy ota.
- Ha-da. O'g'li Moskopda o'qigan Meli cho'tir-chi?! Bilasan, uzoq yili janazasiga birga borganmiz.
- E, bo'ldi, bo'ldi, - dedi Saksonboy ota. - Boplagansan!
Aftidan, uloqdagi voqea ko'z oldiga keldi shekilli, bel og'rig'ini ham unutib, baralla kula boshladi. Nazir ota ham unga qo'shildi. Ikkalovi miriqib kulishdi.
- Men tagimga bosib olganmanu oyog'ini qo'yib yubormaydi-da uloqni, - derdi kulgi aralash Nazir ota. - Qo'yib yubor, deyman baqirib. Yo'q, parvoyi falak. Keyin bir siltadim otimni, bechora egar-pegari bilan ag'darilib tushdi.
- Men kelib qolmaganimda otning tagida bo'lsa ham yopishib yotaverardi cho'tir.
- Yaxshiyam kelib qolding, oshirib yubordim. Qanday qilib yiqilding o'shanda sen? Orqangda hech kim yo'q edi-ku?
- Hech kim yo'q edi, - dedi Saksonboy ota. - Ayil bo'shab ketdimi yo o'zi noto'g'ri o'tirib qoldimmi, ishqilib, orqam bilan gurs etib yiqilganimni bilaman. - Saksonboy ota yana kuldi. - Yiqilib yotibmanu uloq esimdan chiqmaydi. Seni chaqiraman nuqul.
- Men o'shanda senga qarolmadim, - dedi Nazir ota. - Uloqni oldimu shunday kavobpazning oldiga olib borib tashladim. Senga qarolmadim.
- Yo'q, kenjam - Turobim ko'rib turgan ekan, darrov kelib qo'ltiqab oldi.
- Endi o'zingga qara sen ham, - dedi Nazir ota jidsiy ohangda.
- Qarayman, bir Chortoqqa borib, balchiqqa yotsam deyman, - dedi Saksonboy ota. - Kuz kelsin. Birga boraylik? Sen ham dam olib kelasan.
- Ko'rarmiz, - dedi Nazir ota qo'ynidan naycha qog'ozni olib. - Saksonboy!
- Labbay?- Boya kampiring uyini ko'targan edik Zulayho bilan. Qutidan manavi qog'oz chiqib qoldi. Tursunniki. Yana joyiga tashlab

qo'ygani ko'nglim bormayapti. Keraklikka o'xshaydi nazarimda. Nima qilsam ekan?

- Nima ekan o'zi?

- Mana, ko'r.

Saksonboy ota qog'ozni ochdi. Lekin hech narsa tushunmadi.

- Nima bo'ldi ekan?

- Bilsam so'rarmidim? - dedi Nazir ota. ВЪ"Urushga ketayotganda hamma keraksiz qog'ozlarini oyisiga "yoqib yuboring", deb olib chiqib tashlagan edi. Boshqa hech nima yo'q. Faqat shu qog'oz qolibdi. Tag'in qutida. Kerak bo'lmasa buni ham tashlab yuborardi.

- Nima qilsak ekan? - dedi Saksonboy ota. - Turob ham yo'q. Afg'onda. Haliveri kelmaydi. Bunaqa chiziqlarni injenerlar biladi-da.

- Yettiqoyaning rasmi ham bor emish. Zulayho aytdi.

- O'zimizning tog'ni-ya?

- Ha, - dedi Nazir ota. - Innaykeyin, tepasiga "Plan" deb yozilgan.

- Tekshirtirish kerak bo'lmasa, - dedi Saksonboy ota qat'iy qilib. - Zarur narsa bo'lib qolsa ajab emas. To'xta, - dedi u nimadir xayolidan o'tib. - Ertalab qovunni yozgani bir muxbir kelgan. Shunga ko'rsatmaymizmi?

Bu fikr Nazir otaga ma'qul tushdi.

- Mayli, - dedi u qog'ozni yana naycha qilib o'rarkan. - Qaerda u?

- Qaerda bo'lsa ham shu yerdan o'tadi. O'tir poylab. Yo ishing bormi?

Nazir ota "Bundan ham zarur ish bormi?" demoqchi edi-yu demadi.

- Ishim yo'q, - deb qo'ya qoldi.

Muxbir oqshom tushib, bir-ikkita choyxor chopiqchilar daladan qaytganda keldi.

- Poliz qalay, uka? - so'radi Saksonboy ota uning oldiga bir choynak pamil choy olib kelib. - Yoqdimi?

- Yoqdi, juda ham yoqdi, - dedi muxbir qornini silab. - Qornim shishib ketdi qovun yeyaverib.

- Durust-durust, - dedi Saksonboy ota. - Yaxshilab gazetga yozar ekansiz-da, endi?

- Ha, ocherk yozaman, - dedi muxbir. - Ocherkka arziydi!

- Durust-durust, - dedi yana Saksonboy ota. - Endi sizdan bir iltimos bor, uka. Yo'q, demaysiz.

- Xo'sh? - so'raydi muxbir.

- Manavi hujjatni bir ko'rib bering. Aqlimiz yetmay turibdi. Nima ekan. Nazir! Qog'ozni ko'rsat.

Nazir ota qog'ozni qo'ynidan ehtiyotlik bilan olib muxbirga uzatdi.

Muxbir yosh edi, endi yigirma uch-yigirma to'rtlarga kirgan bo'lsa kerak. Qog'ozni u yoq-bu yoqqa ag'darib ko'ra boshladi.

- Geologik planga o'xshaydi.

- Labbay? - so'radi Saksonboy ota tushunmay.

- Qandaydir qazilmaning plani, - dedi muxbir. - Konning plani. Qaerdan topdingiz buni?

- Topganim yo'q, o'g'limniki, - dedi Nazir ota.

- Bo'lmasa, o'g'lingizning o'zi bilsa kerak nimaligini?

- O'g'lim urushda... bedarak ketdi, - dedi Nazir ota. "O'lgan" deb aytolmadi.

Muxbir o'ylanib qoldi.

- Nima qilish kerak buni? - so'radi Nazir ota. - Kerak narsami?

- Bilmadim, ota, - dedi muxbir qog'ozni qaytarib. - Buni geologiya boshqarmasida bilishmasa, boshqa yoqda bilishmaydi.

- Qaerda bo'ladi bu idora? - so'radi Saksonboy ota.

- Toshkentda.

Muxbir boshqarmaning adresini yaxshilab tushuntirdi. U ketgach

- Nima qilamiz? - so'radi Saksonboy ota o'rtog'idan.

- Boraman, - dedi Nazir ota. - Idorani topib ko'rsataman. Menga ozroq pul berib tur. Pensamdan uzaman.

- Mayli, bor, - dedi Saksonboy ota unga ikkita o'n so'mlikni uzatarkan. - Ishqilib, ishing o'ngidan kelsin.

- Rahmat.

Nazir ota qandaydir, shu paytgacha o'zida sezmagani hayajon va quvonch bilan uyga qaytdi. Zulayho osh damlab o'tirgan ekan.

Suzib keldi. Nazir ota ishtaha bilan yedi.

- Ertaga Toshkentga tushaman, - dedi qo'lini artarkan va nevarasiga niyatini aytib berdi. Zo'layho bobosining bu ishidan bironta foyda chiqishiga ishonmasa ham, indamadi, ra'yini qaytargisi kelmadi.

- Mayli, o'ynab ham kelasiz, - dedi.

"Hikmat shundamikin? - O'yladi Nazir ota yotarkan tushini eslab. - Shunda bo'lsa, xursand qilaman seni, Zaynab. Charchaganim yo'q hali. Hali belimda quvvatim ko'p. O'g'lingni izziz qoldirib ketmayman. Biron nishona qoldiraman undan. Albatta qoldiraman".

Ertalab u azonda, hali xo'roz qichqirmasdan qovun ortgan mashinaga o'tirib, shaharga jo'nadi.

Shaharda u boshqarmani darrov topdi. Ko'p qidirmadi. Lekin boshqarma berk edi. Hali ish boshlanmagan edi. Shunday bo'lsa ham Nazir ota o'zini niyatiga yetganday his qildi. "Halizamon kelishadi, - O'yladi o'zicha u. - Ko'rishadi. Lekin nima ekan o'zi bu? Qanday konning plani ekan? Nima bo'lsa ham har holda o'g'lim qo'yib ketgan narsa keraksiz bo'lmaydi. Keraksiz bo'lsa qo'yib ketarmidi?"

U shu fikr bilan ko'chaning narigi betidagi xiyobonga o'tdi. Quyosh endi ikki terak bo'yi ko'tarilgan edi. Xiyobonda odam siyrak. Bir kampir aravachada bolasini aylantirib yuribdi. Kimdir - erkakmi, ayolmi, kiyimidan ajrata olmadi, gul do'konining oldini supuryapti.

Nazir ota yo'lka yonidagi kamalak tus skameykalarning biriga o'tirdi.

"Keraksiz bo'lsa qo'yib ketmasdi, - dedi yana qog'ozni o'ylab. - Shoshganda, shoshgan. Shoshmasa o'zi bir yoqlik qilib ketardi".

Nazir ota shunday dedi-yu, ko'z oldiga o'sha, o'g'lini frontga jo'natgan kun keldi. U bu kunni sira eslagisi kelmas, lekin unutib ham yubora olmas edi. Shu kuni u umrida birinchi marta kampiriga qo'lini ko'targan, shu kuni birinchi marta o'g'lidan ta'na eshitgan edi.

Qirq ikkinchi yilning avgusti edi o'shanda. Xuddi mana shu kungiday havo ochiq, o'ftob nurini ayamay yeru suvni qizdirib turardi.

Nazir ota bog'da tok chopiq qilayotgan edi. Olisdan poyalarga suyanib-suyanib kelayotgan bir odam ko'rindi. Bu - Nazir ota tanidi - kelini edi. Tanidi-yu, jahli chiqdi. "Ovqat olib kelayotgan bo'lsa kerak, - O'yladi xunob bo'lib. - O'zi olib kela qolsa nima qilar ekan Zaynabning og'iroyoqli odamni yubormay?!".

Kelini ro'parasiga kelganda ishdan boshini ko'tarmay so'radi

- Nega sen kelding? Oyingning o'zi kelsa uzilib qolarmidi?

U keliniga yer ostidan qaradi-yu cho'chib ketdi. Kelinining rangida rang qolmagan, ko'karib ketgan lablari titrardi.

- Tinchlikmi? - so'radi hovliqib.

- O'g'lingizga... O'g'lingizga povestka keldi, - dedi nafasi qisilib kelin va yig'lab yubordi.

Nazir ota turgan joyida qotib qoldi. U har qanday shum xabarni kutgandi, lekin buni kutmagan edi. "O'g'lim hali yosh", deb o'ylab yurardi.

- O'zi qani? - so'radi Nazir ota o'ziga kelib.

- Otlanyaptilar...

- Qo'y, yig'lama, - dedi Nazir ota kelinini qo'litiqlarkan. - Qani, yurchi!

Ular uyga kelishganda Zaynab xola o'choq boshida nimadir pishirayotgan edi. Erini ko'rdi-yu, piqirlab yig'lab yubordi.

- Qani? - so'radi Nazir ota.

Zaynab xola uyga ishora kildi. Uning gapirishga majoli qolmagan edi.

Uyda Tursun qog'ozlarni yig'ishtirardi. Otasini ko'rib jilmaydi.

- Otlanyapsanmi? - dedi Nazir ota ro'parasidagi stulga o'tirib. U o'zini dadil tutishga harakat qilardi.

- Otlanyapman, - dedi Tursun. - Otlanish kerak.

- Bugunmi?

- Hozir. SelKjsovetda yig'ilamiz.

- Keyin qayoqqa?

- Toshkentga bo'lsa kerak. Toshkentdan jo'naymiz.

- Yigirma uchga ham navbat kelibdi-da? Tursun indamadi.

- Ko'pchilikmisizlar? - so'radi yana Nazir ota.

- Ha, o'zimizdan o'ttiz kishi. Qumarikdagilar ham shu yerga kelishadi. Ular qancha - bilmadim.

Gap yana uzildi. Nazir ota endi nimani so'rashni bilmasdi. Ammo so'ragisi kelardi, to'g'rirog'i, o'g'lini gapirtirgisi, uning xuddi o'zinikiga o'xshagan yo'g'on, lekin shirali ovozini eshitgisi kelardi. O'g'li esa o'zicha biron narsa demas, fikri-zikri otlanish bilan band edi. Buni ko'rgan sari Nazir otaning ko'ngli ezilar, ko'zlarini chetga olib qochar, yo bo'lmasa yuragiga erk berib, o'g'lini bag'riga bosgisi kelardi. Ammo nimadir uni ushlab turardi, nimaligini o'zi bilmasdi.

- Bu yil uzum yaxshi bo'ladiganga o'xshaydi, - dedi oxiri o'zini chalg'itib. - Har boshi savatdek keladi jonivorning.

- Ha, ko'rdim, - dedi minnatdor ohangda Tursun. - O'zingiz ham bog'dan beri kelmadingiz-da. Qachon bo'lmasin, o'sha yoqdasiz.

- Shunday qilmasang bo'ladimi? Hamma narsaga ham qarov kerak. Yaxshi qarasang yaxshi bo'laveradi.

Kelin kirdi.

- Ovqat tayyor, - dedi u eriga ko'zlarini mo'ltirabit.

Tursun otasiga qarab qo'ydi. Nazir ota buni o'zicha tushunib, o'rnidan turdi.

- Men oyingga qarashvoray. Keyin chaqiraman. U chiqib ketdi. Ayvonda xotiniga duch keldi.

- Qayoqqa? - so'radi u xotining uyga kirayotganini ko'rib. - Birpas xoli qo'y ikkovini. Gaplashib olishsin.

Zaynab xola orqasiga qaytdi.

Ovqatni ariq ustida supada yeyishdi. Tursundan boshqa hamma chaynalib o'tirdi, yemadi. U qo'lini artgach, Zaynab xola yana piqirlab yig'lab yubordi, kelin unga qo'shildi.

- Bo'ldi-da endi! - dedi Nazir ota jahl bilan. - Yurtga kelgan to'y. Bitta bu ketayotgani yo'q. Muncha yig'i qilasanlar! Undan ko'ra qo'llaringni och. Omin. Oy borib, omon kel, o'g'lim. Qani, turdik.

Nazir ota o'g'lining qayish tortilgan qopini ko'tarib oldi. Birpasda ichkaridan qaynana-kelin kiyinib chiqishdi.

- Senlar qayoqqa? - so'radi Nazir ota xunobi chiqib.

- Qo'yinglar, oyi, shu yerda qolinglar, - dedi Tursun. - Hojati yo'q. Yaxshisi, kelinizingizga qarang. Sen qayoqqa? - so'radi u xotiniga o'girilib.

- Men ham boraman, - dedi kelin.

- Zo'rg'a turibsan-ku, qayoqqa borasan? - dedi Tursun. - Urntirma o'zingni. Oyi, qoling, kelinizingizga qarang.

- Qol, - dedi Nazir ota. - Men o'zim kuzatib kelaman.

Qishloq soveti inidan ko'chgan aridek g'uuvillardidi. Yosh ham, qari ham shu yerda. Binoning oldi birpasda ot-aravaga to'lib ketgandi. Kimdir xirildoq ovoz bilan boloxonador qilib so'kinardi. Qandaydir ayol ovozi esa: "Voy bola-e-m, voy bola-e-m!"

Yolg'izim bola-e-m, yolg'izim bola-e-m!" "В" deb cho'zib-cho'zib yig'lardi. Nazir otaning tomog'iga nimadir kelib tiqildi. Beixtiyor bo'sh qo'lini orqasiga cho'zdi.

- Ha, ha, men shu yerdaman, - dedi Zaynab xola qo'lini siqib. - Yig'layotganim yo'q. Xavotir olmang.

- Yig'lama, - dedi Nazir ota yutinib. - Hozir yig'lama, uyat bo'ladi.

Tursun qopni uning yelkasidan olib, "hozir chiqaman" dedi-da, odamlar ichiga sho'ng'idi.

Er-xotin ariq labiga o'tirishdi.

Odam borgan sari ko'paya boshladi. Qiy-chuv, bolalar, xotinlarning yig'isi, kulgi, otlarning kishnashi - hammasi qo'shilib quloqni kar qila boshladi. Nazir ota olomonga tikilib, hech kimni ajrata olmadi. Ko'ziga Saksonboy ota ko'ringanday bo'ldi, lekin darrov uni ham yo'qotdi. Aftidan, bu gal atrofdagi besh-olti qishloqning yigitlari shu yerga yig'ilishgan edi...

Bir mahal

- Yo'lni bo'shatinglar! Yo'lni! Chiqishyapti! - deb qichqirdi kimdir.

Odamlar ko'chaning ikki tomoniga tizilishdi. Qishloq sovetidan birin-ketin yigitlar chiqa boshlashdi. Qiy-chuv avjiga mindi.

Boyagi ayol ovozi yana: "Voy bola-e-em, yolg'izim bola-em!" deb yig'lay boshladi. Kimdir boloxonador qilib so'kdi uni. Lekin xotin tinmadi, yurakni timdalaydigan bo'g'iq ovozi bilan battar qichqirib yig'lay boshladi.

Nazir otaning ham jahli chiqib ketdi.

- Tirik bolasini ko'myaptimi, bu ahmoq nima qilyapti o'zi?! - dedi xotiniga.

Zaynab xola javob bermadi. Tursun chiqdi.

- Shaharga ketyapmiz, - dedi u qopini yelkasiga olib. - Endi bo'ldi. Sizlar qolinglar. Darrov xat yozaman.

- Men boraman, - dedi Nazir ota.

- Men ham boraman, - dedi Zaynab xola. Nazir ota xotiniga qaradi.

- Sen endi qol. Bo'ldi. Xayrlashding.

- Dadamlar mayli, - dedi Tursun. - Siz qoling. Keliningiz yolg'iz. Urinmasin. Darrov xat yozaman. Xo'pmi?

- Bolam! Bolaginam! - Zaynab xola o'zini tutolmay yig'lab yubordi.

- Bo'ldi endi, uyatga qo'yma odamni! - dedi Nazir ota cho'ntagidan dastro'molini olib. - Ma, ko'zingni artib ol. Iya, yig'lama desa, battar yig'laysan-a?!

- Yig'layotganim yo'q, o'zi shunday... - Zaynab xola erining qo'lidan dastro'molini olib ko'ziga tutdi.

- Xo'p, oyi. Xayr. Yaxshi qoling, - dedi Tursun jilmayib.

Shu jilmayish ta'sir qildimi, yo erining so'zlarimi, Zaynab xola yig'idan to'xtadi, yuzlariga tabassum yugurdi va har doimgidek tiniq, qo'y ko'zlarini o'g'luga tikib

- Bor, bolam. Xudoyo umring uzoq bo'lsin, - dedi. Ota-bola yo'lga tushishdi.

Quyosh botib, kechki salqin turganda ular shaharga kirib borishdi. Rakatga yetishganda Nazir ota, Tuproqo'rg'onga borishsa kerak, deb o'ylagan edi, yo'q, borishmadi. Otryad to'g'riga, shaharning markazidagi sapyorlar kazarmasiga qarab yo'l oldi. Ko'p o'tmay u yerga borishdi. Kazarma oldidagi behisob odamlarni ko'rib, Nazir otaning kayfi uchib ketdi. Lekin nima uchundir bu yerda qiy-chuv yo'q edi. Hamma jim edi. Faqat katta tunuka choynak ko'targan bir bola ovozinin boricha baqirib yurardi:

- Kimga suv! Muzdek suv! Mana suv-v-v!

Yigitlar ikki tavaqali temir darvoza oldida to'xtashdi.

- Mana, keldik, - dedi Tursun. - Endi qaytsangiz ham bo'ladi.

- Yo'q, men birpas turaman, - dedi Nazir ota. - Qayoqqa ketishlaringni bilib, keyin ketaman.

Tursun indamadi. Darvoza ochildi. Yigitlar ichkariga kirishlari bilan yana yopildi.

- Qaerdansiz? - so'radi kimdir Nazir otadan. Nazir ota aytdi.

- Uzinglar-chi?

- Yakkabog'dan.

Nazir ota Yakkabog'ning qaerdaligini eslolmadi. Surishtirib ham o'tirmadi. Uning nazarida, urush dunyoning hamma burchagidagi odamlarni shu yerga yig'ishtirib kelgan edi. Buning ustiga ming xil fikr bilan xayoli band edi, yo'l ham charchatgan edi. Chekkaga chiqib, devor tagiga o'tirdi.

Bir mahal darvoza ochildi. Saf-saf bo'lib yigitlar chiqqan boshlashdi. Dunyoni larzaga soluvchi qiy-chuv ana shunda boshlandi.

Odamlar xuddi bolasini yo'qotgan qarchig'aydek o'zlarini yigitlar safiga urishar va biri o'g'lining, biri eri yoqi ukasining otini aytib chaqirishadi. Topgani tinchib u bilan yonma-yon ketar, topmagani uvvos solib o'zini ikkinchi safga tashlardi. Saflar oqimi esa tugamas, bu oqimdan darrov o'z odamingni topib olish amrimahol edi. Shuning uchun bo'lsa kerak, ba'zan yigitlarning o'zlari saf orqasidan: "Oyi! Men bu yerdaman!" "Men Xudoyberdiman!" "Qayoqdasiz, dada? Chap tarafga o'ting!" deb qichqirishardi. Bu hayajon, tashvish, yig'i aralash baqiriq-chaqiriqlar orasida suvchi bolaning sokinlik bilan: "Kimga suv-v-v! Muzdek suv! Mana suv-v-v!" deb qichqirishi xuddi tonggi nay sadosidek yoqimli eshitilardi.

- Hoy bola! Suvingdan olib kel! - qichqirdi Nazir ota olomondan ko'zini olib qochib.

"Men ham shunaqa qidirib yursam-a, - xayolidan o'tdi uning. - Bu qanday dahshat bo'ldi, bu qanday dahshat".

- Cho'michi qanchadan? - so'radi oldiga kelgach.

- Tekin, - dedi bola. - Suvni ham sotadimi, amaki? Mang, muzdek. Hozir kelibsizda-a?

- Ha. Qaerdan bilding? - so'radi Nazir ota cho'michni uning qo'lidan olarkan.

- Narxini so'raganingizdan, - dedi bola. - Bular hammasi kecha kelishgan, - bola olomonga ishora qildi. - Ba'zilar o'tgan kuni.

- Rahmat, o'g'lim, - Nazir ota suvdan bir-ikki ho'pladi, ortiq icholmadi. Lekin ancha o'ziga keldi. Bolaga biror narsa berish uchun cho'ntaklarini titkiladi. Bitta tuyaqurt chiqdi - keliniga olib kelganida qolib ketgan ekan - shuni uzatdi. - Ma, manavi senga.

Kimning o'g'lisan?

- Rahimbek akani. Tanimaysiz, b'v" dedi bola qurti ikkiga bo'lib, yarmini og'ziga soldi, yarmini ishtonbog'iga qistirdi. - Ular ham urushdalar. Moskvada. Yaxshi qurt ekan. Ilgari oyimlar ham qurt solar edilar.

- Endi-chi? - so'radi Nazir ota.

- Endi sigirimiz yo'q. Sotib yuborganmiz. Yem yo'q.

- Qiyin bo'libdi, - dedi Nazir ota achinib.

- Hammaga ham qiyin bo'ldi, - dedi bola xo'rsinib. - Lekin nima qilamiz? Chidaymiz. Bu kunlar unut bo'lib ketadi, oz qoldi.

Nazir ota bu kattani kesib kichik qilgandek bolaning gaplariga hayron bo'lib qoldi. O'zi tirnoqcha-yu gaplari katta odamniki.

Urush o'lsin, bolalar yoshligidayoq katta bo'lib qolyapti. Bolaligini bilmay qolyapti...

- O'zingiz o'ylang axir, - dedi bola yana salmoqlanib, - Moskva ostonasidan quvdikmi? Quvdik. Bu yog'i endi tez ketadi.

Ishtonchang qochishadi endi fritslar!

- Ishqilib, aytganing kelsin.

- Xo'p, endi men boray, - dedi bola choynakni ko'tarib. - Yangilar kelishdi. Cho'llagandir. Siz joyingizda o'tiravering. O'g'lingizni ertaga ertalab ko'rasiz. Hozir ularni cho'miltirishadi, soch-soqolini oldirishadi. Shu bilan o'zi ertalab bo'ladi. Hov anavi hovli bizniki. - Bola ko'chaning narigi betidagi qizil eshikni ko'rsatdi. - Kuzatuvchilarga atab joy qilib qo'yganmiz. Lekin baribir bugun ko'rolmaysiz o'g'lingizni.

- Rahmat, o'g'lim. Umring uzoq bo'lsin, - dedi Nazir ota unga mehr bilan boqib.

Bola ketdi. Ko'p o'tmay uning qo'ng'iroq ovozi kuzatuvchilar ichida yana jaranglay boshladi.

- Kimga suv-v-v! Mana suv! Muzdek suv-v-v!

Nazir ota tramvay to'xtaguncha o'tirdi. Tursun chiqmadi. "Ertalab ko'rur ekanman-da", - O'yladi Nazir ota va bola ko'rsatgan hovliga kirdi. Har yer-har yerda biri paranjisini, biri chophonini ostiga solib yotgan odamlarga turtina-turtina butun hovlini bag'riga olgan katta nokning tagiga borib kimningdir yoniga cho'zildi. Ammo uxlolmadi, baqiriq-chaqiriqlardan, yig'i, so'kinishlardan boshi g'uvillar, ko'z oldidan esa o'g'lining kulib turgan siyмосi ketmasdi. G'ira-shirada ko'chaga chiqdi.

- Ha, amaki, uxlolmadingizmi? - so'radi kimdir. Bu kechagi bola edi.

- Uyqu kelmayapti, - dedi Nazir ota. - O'zingchi? Muncha erta turmasang?

- Hozir erta turmasa bo'ladimi?! - dedi ozgina kinoya bilan bola, keyin jiddiy ohangda qo'shib qo'ydi - Nonga ketyapman. Vohli bormasam yetmay qoladi.

Bola ketdi. Derazalarigacha odam osilgan birinchi tramvay shovqin bilan o'tdi. Tong otdi. Kazarma tomondan ashula eshitildi. U borgan sari yaqinlashib keldi-da, yuzlab oyoq tovushlariga qo'shilib ketdi. Nazir otaning tagidagi yer titray boshladi. Darvoza ochildi. Yigitlar, soldatlar chiqishdi. Yana qiy-chuv bilan yangi kun boshlandi. Lekin bu safda Tursun chiqmadi. Nazir ota shunday darvoza yoniga o'tib olib, chiqayotganlarning hammasini kuzatib turdi. Tursun chiqmadi. Saf tugab, darvoza yopilganda kimdir Nazir otaning yengidan tortdi. Nazir ota o'girilib, ro'parasida turgan Saksonboy aka bilan xotinini ko'rdi.

- Xavotir olmang, - dedi Zaynab xola erining o'zgarib ketganini ko'rib. - Mo'ljalimda yana ikki oy bor.

- Bu ham ko'rsin-da, - dedi Saksonboy aka. Nazir ota kelinidan ancha xavotirda bo'lsa ham indamadi.

- Bu yoqqa o't, - dedi faqat joyini bo'shatib. - Shu yerdan yaxshi ko'rasan.

Tursunlarning safi tushga yaqin chiqdi. Nazir otaning cho'chiganicha bor edi. Na xotini, na Saksonboy aka, na o'zi o'g'lini taniy olishdi. Chakkalariga buralib-buralib tushib turadigan qop-qora jingalak sochini oldirgan Tursunning o'zi safning o'rtasidan qichqirmaganda, ular ko'risholmay qolisharmidi balki?

Qoqilib-suqilib safning yoniga o'tib olishdi. Nazir ota xotining qo'lidan yetaklab olgan edi.

- Saratovga! Saratovga! - qichqirdi Tursun va yana nimalardir dedi, to'polondan Nazir ota eshitilmadi.

Bir mahal Tursun oyisini ko'rib qoldi va ovozing boricha qichqirdi:

- Uyga jo'nanglar! Yolg'iz-ku axir! Uyga jo'nanglar!.. Kimdir ashula boshladi. Butun saf unga qo'shildi. Safning so'ngidagi to'pponcha taqqan komandir kuzatuvchilarga "Bo'ldi endi, qolinglar!" deganday qo'lini silkidi. Nazir ota to'xtadi. U so'nggi xayrlashuvning bunchalik qisqa bo'lishini kutmagan edi. Qulog'i tagida esa o'g'lining oxirgi so'zlari ta'nadek jaranglardir.

- Qaytdik, - dedi u xotiniga. Zaynab xola e'tiroz bildirmadi.

Qishloqqa yetishganda olisdan yugurib kelayotgan bir ayolni ko'rishdi. Nazir otaning yuragi "shuv" etib ketdi. Ayol - dasturxonchi edi.

- Tezroq yuring, Zaynabxon! - dedi u qichqirib. - Kelingiz og'irlashib qoldi!..

- Aytmovdimmi, ablah!

Nazir ota qulochkashlab xotining bo'yniga tushirdi. Zaynab xola gandaraklab ketdi. Lekin o'zini darrov ushlab olib, uyga yugurdi.

Namozshomda kelin tug'di. Tug'di-yu, ammo o'zi ko'z yumdi... Uning qirqi kuni Tursundan xat keldi. Saratovda ekan. "Ikki kundand so'ng jo'nab ketamiz. Qayoqqaligini bilmayman. Borgandan keyin yozaman", degan edi u xatda. Lekin yozmadi, bedarak ketdi.

...Kurant o'nga bong urdi. Nazir ota asta o'rnidan turdi.

* * *

Geologiya boshqarmasida ish endi boshlangan edi, eshik yonida stul qo'yib o'tirgan qorovul ayol uning nima uchun kelganini batafsil surishtirib, o'rnidan turdi-da, kimga murojaat qilishni tushuntirib berdi.

- Ikkinchi qavatga ko'tarilib, chap tomonga buriling. Keyin, koridorning oxiridagi xonaga kiring. Vohid Saidovichning - boshqarma boshlig'ining kabineti o'sha yerda. SekretarKj qizga aytasangiz olib kiradi. Tushundingizmi?

Nazir ota "ha" deb boshini qimirlatdi.

- Boring bo'lmasa, - dedi ayol joyiga o'tirib. - To'g'ridagi zinadan chiqavering. Tezroq boring, tag'in Vohidjon ketib qolmasinlar!..

Nazir ota zangori gilam to'shlangan zinadan ko'tarilar ekan, ayol orqasidan qichqirdi

- Ishqilib, ishingiz rivoj topsin!

- Rahmat, - dedi Nazir ota ko'ngli ko'tarilib.

U ikkinchi qavatga chiqib, ayol tushuntirgandek chap tomonga burildi. Koridor juda uzun ekan. Ikki yog'i ketgancha oynavon eshikli xonalar... Bittasiga shunday ko'zi tushib qoluvdi, yuragi bo'shshib ketdi. Xonada xuddi o'g'linikidek qiya stollar turardi. Xuddi o'g'lidek-o'g'lidek yigitlar nimalarnidir chizishardi.

Nazir ota beixtiyor to'xtab qoldi. Ko'zlari yigitlarga qadaldi. Lablari o'zidan-o'zi titray boshladi. Biroq shu top qorovul ayolning "tezroq boring, tag'in ketib qolmasinlar" degan gapi esiga tushib, koridorning to'riga qarab yurib ketdi.

To'rdagi eshik ham oynavonli edi. Nazir ota ichkariga kirdi. Deraza yonida bir qiz nimanidir yozib o'tirardi.

- Mumkinmi? - dedi chol eshikni qiya ochib.

- Keling, - qiz o'rnidan turdi. Nazir ota ichkariga kirdi.

- Vohid... Vohid... - u boshqarma boshlig'ining fami-liyasini eslolmadi.

- Vohid Saidovich Saidov, - dedi qiz jilmayib.

- Ha. Vohid Saidovichda ishim bor edi...

- Nima ish?

Nazir ota aytib berdi va qo'ynidan qog'ozni olib ko'rsatdi.

Qiz uni sinchiklab ko'rdi-da

- Men so'raychi, - dedi va yon tomondagi xonaga kirib ketdi. Ko'p o'tmay chiqdi.

- Kiring, so'rayaptilar.

Nazir otaning yuragi o'ynab ketganday bo'ldi. Lekin darrov o'zini tutib olib, ichkariga qadam qo'ydi.

To'rda, ixchamgina stolning orqasida qorachadan kelgan yosh bir yigit nimagadir tikilib o'tirardi. Nazir ota tanidi. Bu - uning qog'ozi edi. Yigit cholni ko'rib, o'rnidan qo'zg'aldi.

- Keling, ota, keling, - dedi va stolni aylanib o'tib, unga qo'lini uzatdi. - Assalomu alaykum. Qani, o'tiring.

U stol yonidagi kresloni ko'rsatdi. O'zi ham Nazir otaning ro'parasiga o'tirdi. -- Keling, ota, xizmat?

- Xizmat shuki, bolam, - dedi Nazir ota nafasini roslab. - Kecha nevaram bilan uyni ko'tarayotib, mana shu qog'ozni topib oldim.

O'g'limniki. O'g'lim ham sizga o'xshab givolog edi. Urushda bedarak ketdi. To'rtinchi kursni endi tamomlovdi. Bir-ikkita ko'rsatuvdim, konning plani deyishdi... Konning plani bo'lsa, kerak narsa ekan deb, bu yoqqa keldim. Bir ko'ring, bolam. Har holda o'g'limdan xotira-da.

- Juda yaxshi, ota. Juda yaxshi. Albatta ko'ramiz. Saidov yana qog'ozga tikildi.

7 Kitoblar Olami | Sever.UZ | Uzsmart.UZ

- Yettiyoqyaga yaqin turasizmi?
- Ha, Shirinsoyda hovli. Tog' bizdan olti chaqirimcha keladi.
- Bu qog'oz haqida o'g'lingiz hech narsa demaganmidi?
- Eslolmayman. Nazarimda, hech narsa demagan edi.
- Toqqa tez-tez chiqib turarmidi?
- Nima desam ekan! Ha, tez-tez chiqib turardi. Kanikul paytlari nuqul tog'da bo'lardi.
Saidov o'ylanib qoldi. Keyin stol tagidagi knopkani bosdi. Boyagi qiz kirdi.
- O'rtoq Qodirovni chaqirib yuboring, - dedi Saidov unga va Nazir otaga o'girildi. - Ota, student chizganligi bilinib turibdi.
- Ha, o'g'lim student edi, - dedi Nazir ota. - To'rtinchi kursda o'qiyotgan edi.
- Mumkinmi?
Eshik ochilib, chakkalariga oq oralagan o'rta yashar bir kishi kirdi.
- Bu yoqqa keling, Mahmud aka, - dedi Saidov. Qodirov uning oldiga kelgach, qog'ozni uzatdi.
- Bir narsa tushundingizmi?
- Yettiyoqya-ku! - dedi Qodirov qog'ozdan ko'zini uzmay. - Nimaningdir plani...
- Ha, - dedi Saidov. - Otamlar olib keldilar. Urushda bedarak ketgan o'g'illarini ekan. Siz ko'p shug'ullangansiz Yettiyoqya bilan, yaxshilab ko'ring-chi.
- Geologmida o'g'lingiz? - so'radi Qodirov.
- Ha, givolog edi, - dedi hozirjavoblik bilan Nazir ota. - To'rtinchi kursda o'qiyotgan edi. Qir q ikkinchi yili...
- O'h-ho', - Qodirov hushtak chalib yubordi. - Yigirma yillik qog'ozmi hali bu?
- Eskimi? - so'radi xavotirlanib Nazir ota.
- Eskilikka-ku eski, juda ham eski, - gapga aralashdi Saidov. - Lekin... Yettiyoqya kam tekshirilgan. Shuning uchun...
- U yerda nima ham bo'lishi mumkin, - dedi Qodirov uning gapini bo'lib. - Qiziq... bir narsa bo'lsa yigirma yil ichida topilmasmidi?
- Bu endi taxmin. Tekshirish kerak, - dedi Saidov o'rnidan turib. - Ota, siz qishlog'ingizga qayting. Albatta tekshiramiz.
- Rahmat, - dedi Nazir ota va o'rnidan turdi. - Qachon xabar olay?
- Xabarmi? Xabar... Xabar olmang, - dedi Saidov unga qo'l uzatib. - O'zimiz xabar beramiz. Mahmud aka, siz nima deysiz?
- Ha, albatta xabar beramiz. Yo men o'zim boraman. - Qodirov Nazir otaga o'girildi. - Ammo ota, bir narsa deyish qiyin. O'g'lingiz student ekan. Adashgan bo'lishi mumkin. Studentlikda nimalar bo'lmaydi. Lekin tekshiramiz. Yettiyoqyaga boramiz.
- Rahmat, bolam, - dedi Nazir ota ko'ngli ko'tarilib. - Rahmat.
- Xayr! - dedi Saidov uni eshikkacha kuzatib qo'yib.
- Ha, ota, ishingiz bitdimi? - so'radi qorovul ayol Nazir ota pastga tushganda.
- Bitdi hisob, - dedi Nazir ota jilmayib.
- Aytmadimmi, - dedi zavq bilan ayol. - Vohidjon bilan bitmaydigan ish yo'q.
- Rahmat, opa, rahmat! - Nazir ota ko'chaga chiqib ancha yengil tortganini sezdi.

* * *

Qishloqqa qaytib, u to'g'ri choyxonaga kirdi. Hammasini o'rtog'iga oqizmay-tomizmay so'zlab berdi.
- Menga qara, Nazir, - dedi Saksonboy ota unga diqqat bilan tikilib. - Kon-pon chiqib, toza boyib ketsang-a!
- Qo'y bu gapingni, - Nazir otaning jahli chiqdi. - Kon-pon chiqib qolsa, Tursunni ko'rganday bo'laman. Shuning o'zi katta davlat. Lekin men senga aytсам, o'rtoq, biror narsa chiqadiganday, yuragim sezib turibdi.
- Ishqilib, aytganing kelsin, - dedi Saksonboy ota. Nazir ota uyga keldi. Uning kayfi chog' edi. Shahardagi geologlar bilan suhbat unga qanot bag'ishlagan va u o'zini xotininining vafotidan so'ng bunchalik tetik sezmagani edi.
Ariq labiga borib, hovuchlab suv ichdi. Muzdek suv a'zoyi badaniga yoyilib, dili ravshan tortdi. O'rnidan turib bedana tagiga keldi.
- Ha, jonivor, - dedi to'rqovoqni chertib. - Nega jimsan? Nega sayramaysan? Sayra. Endi bemalol sayrayver...
Bedana bo'ynini cho'zib patilladiyu, sayramadi. Nazir ota uyga kirdi. Zulayho yo'q edi. "Maktabda bo'lsa kerak", o'yladi chol va choponini yechib, ayvon to'ridagi ko'rpachaga cho'zildi. Ammo nimadir esiga kelib, darrov o'rnidan turdi. Apil-tapil choponini kiyib, ko'chaga chiqdi.
"Borib kelaman. Kechgacha borib kelaman. O'zim ham ancha bo'ldi o'sha tomonlarga o'tmaganimga".
Nazir ota shunday deb, tog' tomon yo'lga tushdi. U yo'lning olisligini bilardi. Kamida ikki soat yurishi kerak edi. Lekin hozir unga buning ahamiyati yo'q edi. Dunyoning narigi chetiga bo'lsa ham u hozir borishga tayyor edi. Shuning uchun borgan sari qadamini tezlatardi, yo'lda uchraganlarga ham parvo qilmasdi, ko'zlarini olisda qorayib turgan qoyaga tikkancha, yo'lida davom etardi. Qishlokdan chiqib birpas to'xtab qoldi. Keyin to'g'ri olmazorga qarab yurdi. Bu yer unga tanish edi. Bundan tashqari, olmazordan kesib o'tsa, yo'li ancha qisqarardi. Hozir unga shu kerak edi. Olmazorga kirganda ruhi yana tetiklashdi. Bir yog'i qishloqning etagidagi kanalga, bir yog'i qirga tutashib ketgan bu bog' uning peshona teri bilan yaralgan, dastlabki ikki mingta ko'chatni bundan roppa-rosa yigirma yil burun Yunusobodning Shreder nomidagi mevachilik sovxozidan o'zi keltirib o'tqazgan edi. Hozir esa olmazorning keti ko'rinmaydi, kolxozning deyarli yarmi daromadi shu bog'dan. Nazir ota shoxlarini sindiray-sindiray deb turgan kechki olmalarga g'urur bilan qarab qo'ydi. Kolxoz tuzilibdiki, bog'dorchilik uning sevinchi va tashvishi bo'lib keldi. Yaqinda bu sevinch, tashvishiga yana tashvish kelib qo'shildi. Bu - hov oldinda, qirning ortida sovut taqqan pahlavonday qorayib turgan Yettiyoqya, o'g'lining orzu-umidlari...
Nazir ota olmazordan chiqib, isib ketdi. Ajin bosgan peshonasini, yuz-ko'zlarini ter qoplay boshladi. Lekin u parvo qilmadi. Faqat choponini yechib, yelkasiga tashlab oldi.
Yarim yo'lga yetganda o'tov ko'rindi. Oftobda oltindek sarg'ayib ketgan tep-tekis adirda u xuddi bahaybat yumron-qozikday qaqqayib turardi.
Nazir ota shu yoqqa yurdi. O'tovga yaqinlashganda it huridi. Ichkaridan kimdir chiqdi. "Safarboy!" Tanidi Nazir ota.
- Yo'lbars, yot! - dedi Safar ota itga qo'lini musht qilib. - Nazirku bu, tanimadingmi! Yot. Assalomu alaykum.
Nazir ota kelib, unga qo'l berdi.
- Qaynanang suygan ekan, o'rtoq. Oshning ustidan chiqding. Qani ichkariga. Ko'rishmaganimizga ham yil bo'ldi-a?

- Bo'lib qoldi. Tinchmisan? - dedi Nazir ota o'tovga kirarkan.
- Xudoga shukur, tinchman. Yuqoriga o't, yuqoriga. Ha, durust. O'zingchi, o'zing tinchmisan? Kampirning yiliga borolmadim. Aybga buyurmaysan endi.
- Aybi bor ekanmi, - dedi Nazir ota. - Hammaning ham o'ziga yarasha tashvishi bor, hamma o'zi bilan o'zi ovora.
- Bu gaping ham to'rri. Qani, choyga qara.
Safar ota qumg'ondan choy quyib, o'rtog'iga uzatdi. Go'sht kesib qo'ydi. Nazir ota bosib ikki-uch piyola choy ichgach, so'radi
- Xo'sh, bu yoqqa qaysi shamol uchirdi?
- Bekorchilik, - dedi Nazir ota kulib. Keyin bor gapni aytib berdi.
- Yaxshi, - dedi Safar ota. - Yaxshi qilibsiz. Hech narsa chiqmasa ham, mayli. Ko'ngling tinchiydi. Armon qilib yurmaysan.
- Shunday, - Nazir ota o'rtog'ining gapini ma'qullab bosh silkidi. - Armondan yomoni yo'q.
- O'zim olib boraman, - dedi Safar ota. - Hozir O'tanboy kelsin.
- O'g'ling ham shu yerdami?
- Ha. Kampir ham. Qirning etagida hammasi. Ertaga podani bu yoqqa haydaymiz. Shunga joy hozirladim. Bir haftagacha shu yerda bo'lamiz. O'tni ko'rdingmi, o'tni? Juda yaxshi.
- Suv qalay?
- Ana shu suv masalasi chatoq. Lekin bu yerda eski bir quduq bor. Shuni bir amallaymiz. Tog'ning etagida suv quridi.
- Chatoq ekan, - dedi Nazir ota.
- Chatoq. Lekin nima ham qila olarding, - dedi Safar ota qo'lini silkitib. - Suvsizlik cho'ponning peshanasiga yozilgan. Ko'p o'tmay O'tan keldi. Bu - O'n to'qqiz-yigirma yoshdagi, xuddi otasiga o'xshagan, gavdali yigit edi.
- Katta bo'lib ketibsiz-ku, - dedi Nazir ota unga havas bilan tikilib.
- Katta bo'lmay ketsin, - Safar ota kinoya bilan kuldi. - O'qimayman, deydi endi. Poda boqarmish.
- Zulayho yuribdimi? - so'radi O'tan gapni burib.
- Yuribdi. U ham institutga bormadi. Uyda o'qiyapti.
- Domlasiz o'qish - O'qishmi, - dedi Safar ota. - Tepangda bittasi nixtalab turmasa, o'qib qayoqqa borarding?!
- Hozir ko'pchilik shunday o'qiyapti, - dedi O'tan. - Men ham bu yil kiraman.
- Senga ishonish qiyin, - dedi Safar ota. - Shuncha yil kirmagan endi kirarmiding?
O'tan kuldi.
- Senga kulish bo'lsa, - dedi Safar ota jahl bilan. - Kuydirgan kalladay irshayib yuraversang! Kim tegadi bunaqada senga?!
- Topilib qolar, - dedi O'tan jilmayib va Nazir otaga yer ostidan qarab qo'ydi.
U chiroyli jilmayardi. Shamol yalagan qalin lablari qizarib, qoramtir yuzlarida kichkina, xuddi chaqaloq bolanikidek kulgichlar paydo bo'lardi. "Yaxshi yigit bo'lib-di, - O'ylab qo'ydi Nazir ota, undan ko'zini uzolmay, - Zulaydan ikki yosh katta edi chamamda".
- Nechaga kirding? - so'radi undan Nazir ota.
- Yigirmaga, - dedi jilmayganicha O'tan.
- Uylantirsa bo'ladigan, - dedi Safar ota. - Lekin kim biladi, kim tegar ekan unga?
- Topilib qoladi, - dedi Nazir ota O'tanga ko'zini qisib. - Hali shunday o'qimishligi kelib bo'yniga osilsinki, hayron qolgin.
- Qo'yinglar shunaqa gaplarni, - dedi qizarib O'tan. - Bo'sh qoldingiz, shundan gapirasiz-a, dada?
- Sen bilan boshqa nimani gaplashib bo'lardi, - dedi kulgi aralash Safar ota. - Ilmli gaplarni bilmaysan. Qo'y-qo'zi me'daga tekkan.
- Bo'ldi, men ketdim! - O'tan zarda bilan o'rmidan turdi.
- To'xta, - dedi Safar ota. - Hazilni ham tushunmaydi. Nazir otang toqqa bormoqchi. Birga borib kelaman. Oyingga ayt, ovqat qilib tursin bu yoqqa kelib.
- Keragi yo'q, - dedi Nazir ota. - Kech bo'lib ketadi. Nevaramga aytmay kelganman.
- Hech narsa qilmaydi. Oyingga ayt.
Ikki o'rtoq O'tanning otiga mingashib yo'lga tushishdi.
- Zulayga salom ayting! - deb qichqirdi orqadan O'tan.
Nazir ota bosh silkidi.

* * *

Ular Yettiqoyaga yetib kelishganda kun og'a boshlagan, ammo hamon tafti baland edi. Kunning issig'iga otning bir maromda yelishi qo'shilib, Nazir ota suv bo'lib ketgan edi.

- Bu yil yoz issiq keldi, - dedi u qiyiqchasi bilan bo'ynini artib.
- Terlab ketdingmi? - so'radi Safar ota. - Ha, yoz issiq keldi. Molga qiyin bo'ldi. Biz-ku, bir amallaymiz. Qirdagilar qiynaladi. Daryo olis. Shamol turdimi?
- Shunaqaga o'xshaydi, - dedi Nazir ota ko'kragiga iliq shabada urilganini sezib.
- Nima bo'lsa ham tog'da. Lekin ancha nurab qoldi. Qoyalarga razm sol, - dedi Safar ota, otning jilovini tortib. - Ilgari xuddi nayzaga o'xshardi. Cho'chirdi odam qarab. Endi nurab qoldi. "Cho'pong'or"ga olib boraymi?
- Mayli, oz qoldi shekilli?
- Yetdik, mana.

Ular qurib yotgan jilg'adan o'tib, odam bo'yi keladigan g'or oldida to'xtashdi.

- Bitta shu g'or ilgari gidek, - dedi Safar ota g'orning ichiga kirib. G'or to'rt-besh qadamcha ichkariga cho'zilib kirgan edi. Nazir ota uni eshitmadi. U o'z xayoli bilan band edi. Ko'zini yoshligidan o'ziga tanish bo'lgan toshlardan, qishloqqa qaragan qoyaning labidagi bir shoxi qurib, tangadek kichkina-kichkina barglari qovjirab turgan bukri chinordan, ilgari shovqin solib oqqan, hozir esa qurib, toshlari sarg'ayib yotgan jilg'adan uzolmasdi, suq bilan atrofqa qarardi. Yoshligida u bu yerlarda ko'p bo'lgan, Safar otadek poda boqqan, qoyalarning ustiga chiqib, olis-olislarga tikilgan, tong paytlari muzdek tog' suvidan ichib, dilini yozgan. O'sha paytlari Yettiqoya bunaqa emas edi, bahaybat edi. Ba'zan o'zining salobati bilan odamni qo'rqitardi, ba'zan hayratga solardi.

"Odamga o'xshaydi u ham, - xayolidan o'tkazdi Nazir ota. - Qarib, qaddi bukilibdi... Tursun buning qaeqlarini tekshirgan ekan? Nimalar qilgan ekan bu yerda? Balki shu xarsang ustida o'tirgandir!"

Nazir ota otdan tushdi, xuddi toshlarning ustida o'g'lining izi qolganidek ularga tikildi. Lekin hech narsa ko'rinmadi. Chinorga qaradi. Qovjiragan barglar oftobda sarg'ayib turardi.

"Odamga o'xshaydi u ham, - dedi Nazir ota yana o'zicha. - Xuddi odamning o'zi. O'zgina qoldi, sabr qil. Yaqinda kelaman. O'zim qarayman, to'yg'azib suv beraman. Hirotdan bo'lsa ham olib kelib beraman. Tursun senga qaragandir. U albatta qaragan. Endi men qarayman. Sabr qil".

- O'ylanib qolding? - so'radi Safar ota o'rtog'i yoniga kelib. Nazir ota chinorni ko'rsatdi.

- Quriyapti, - dedi Safar ota achinib. - O'zi ham qachongi chinor. Bolaligimda ham bo'yi shundog' edi. Innay-keyin, topib o'sgan joyini qara.

- Joyi yaxshi, - dedi Nazir ota. - Har qanday daraxt ham shunaqa joy topsin-chi! Qara, xuddi odamga o'xshaydi. Odam esa, ko'pincha qiyin joyda yashaydi.

- Odamning yaxshisi, de! - dedi Safar ota. - Xo'sh, qaytamizmi? Kun ham botdi. Bu givologlarning qachon keladi endi?

- Bilmadim, - dedi Nazir ota aniq so'rab olmaganiga achinib. - Kelib qolishsa kerak yaqinda.

- Bir hafta shu yerda bo'laman. Shunda kelishsa, o'tov seniki. Uch-to'rt kun bo'lishar axir!

- Rahmat, - dedi Nazir ota.

Ular qaytishdi. Nazir ota o'rtog'ining qistoviga qaramay o'tovga tushmadi. Otni ham olmadi. Piyoda uyga qaytdi.

* * *

- Qayoqda qolib ketdingiz? - so'radi xavotirlanib Zulayho ovqat olib kelarkan. - Saksonboy otam ham ay-tib berolmadilar qaerdaligingizni.

- Tog'da edim, - dedi Nazir ota. - Toqqa chiqib keldim. Kelib qolishsa o'zim olib boraman.

- Kelisharmikan?

- Kelishadi, - dedi ishonch bilan Nazir ota. - Albatta kelishadi. Aytganday, senga O'tanboy salom deb yubordi. Zulayho qizarib yerga qaradi.

* * *

Oradan to'rt kun o'tgach, tushga yaqin, geologlar kelishdi. Bular O'tan tengi ikkita yigit edi.

- Bizni o'rtoq Qodirov yubordilar, - deyishdi yigitlar o'zlarini tanitib.

Nazir ota xursand bo'lib ketdi. Darrov choy qo'ydi. Lekin yigitlar o'tirishmadi. O'sha zahotiyog' yo'lga tushishdi.

- Biz uzoq bo'lmaymiz, - dedi ulardan biri toqqa yetishganda. - Siz olib borgan plan bo'yicha Yettiqoyani magnetometr bilan tekshiramiz. Har xil toshlardan olib ketamiz. Tekshirish natijasiga qarab boshqalar kelishadi. Lekin natija qanday bo'ladi - aytish qiyin.

- Juda ham qiyin, - gapga qo'shildi ikkinchi yigit. - Xrizokolla bo'ladiyu, shuncha vaqt hech kim bilmay yotadimi!

- Bu nima deganingiz, o'g'lim? - so'radi Nazir ota.

- Xrizokollami? -Ha.

- Metall. Metalning bir turi.

- Yo'g'-e! - dedi Nazir ota vahmi uchib.

- Biz ham shuning uchun ishonmayapmizda, - dedi birinchi geolog. - Metalla, metall. Hazil gapmi bu?

- Xo'p, boshlaymizmi? - so'radi ikkinchi geolog.

- Biz ketdik, ota. Ishqilib, niyatingizga yetingda!

- Rahmat, - dedi Nazir ota minnatdor ohangda. Geologlar kompasdan kattaroq qandaydir bir asbobni qo'llariga olib,

"Cho'pong'or"ning ustiga chiqib ketishdi.

Nazir ota g'orning og'ziga o'tirdi. Hayajondan u nima qilishini bilmas, yuragi gupillab urardi. Tepadan geologlarning kulgisi eshitildi, toshlar gulduradi. Ko'p o'tmay hamma narsa jim bo'lib qoldi. Na kulgi eshitildi qulog'iga, na toshlarning guldurashi. Qancha harakat qilmasin, hech narsa eshitilmadi. Go'yo birdan hammayoqda hayot tingandek bo'lib qoldi. Nazir ota buni nimaga yo'yishini bilmadi, atrofga alanglab qaradi. Hech narsa ko'rinmadi ko'ziga. Sap-sariq dala. Qovjiragan yer. Bukri chinorning barglari ham tinch. Xuddi oftob qotirib qo'yganday. Lekin bu manzara unga kechagidek ta'sir qilmasdi. "Chiqsinda ishqilib, вЂ" dedi u ichida. - Nima bo'lsa ham chiqsin". Uning xayoliga boshqa narsa kelmasdi, fikri shu bilan band edi. Oxiri charchadi. Ikki chakkasi qisa boshladi. O'zini chalg'itishga intilib osmonga qaradi. Baland, juda balandda nimadir uchardi.

"Nima bo'ldiykin? Kalxatmikini? - O'yladi u. - Yo'q, kalxat bunaqa sekin uchmaydi. Innaykeyin, uning qanoti kaltaroq bo'ladi.

Burgutga o'xshaydi. Burgut shunaqa baland uchadi. Uch, jonivor, uch. Uchaver!.."

Burgut uni tushunganday pastlamadi. Tog'ni bir-ikki aylanib, qayoqqadir g'oyib bo'ldi.

U bu gapni o'ziga nisbatan birinchi marta aytishi edi. Pensiyaqa chiqarishganda ham buni o'ylamagan edi. O'tirsa charchardi.

O'tirganlarni uncha xush ko'rmasdi. Shuning uchun choyxonaga kam chiqardi. Chiqsa faqat kechqurun chiqardi. O'shanda ham ko'p o'tirmasdi, nevarasini bahona qilib, tez qaytardi uyiga. Mana endi ko'nikib qoldi. Zerikmaydi. Charchamaydi ham. Boqqa chiqqanda ham shu. O'zgina u-buga qarab salqin joy qidirib qoladi. Ilgari bunaqa emas edi. Oftob ham ta'sir qilmasdi, charchoq ham sezmasdi. Zulayho chaqirib ketmaguncha g'imillab yuraverardi.

"Hozir ham shunday, - dedi ota o'zini ovutib. - O'zgina charchadim, xolos. Zaynabsiz charchadim. O'zimni o'nlab olaman. Hali baquvvatman. Kuch ko'p hali qo'llarimda".

U tomirlari bo'rtib chiqqan uzun, qoramtir qo'llariga qaradi. Qadoq bo'lib ketgan kaftini tizzasiga qo'yib, jilmaydi.

"Hali baquvvatman. Faqat ba'zida biqin sanchib qo'yadi. Saksonboynikiga o'xshab. Shu xolos. Boshqa dardim yo'q. Hayallab ketishdiku ular?"

Nazir ota o'rnidan turib tepaga qaradi. Kulgi eshitildi, bitta tosh sakrab-sakrab oyog'i tagiga tushdi.

"Tushishyapti", Nazir otaning yuragi yana gupillab ura boshladi. G'ira-shirada geologlar tushishdi.

- Hech narsa yo'q, ota, - dedi birinchi geolog xo'rsinib.

- Labbay? - Nazir otaning oyoqlarigacha muzlab ketdi. Bo'shashganicha g'orning zihiga suyanib qoldi.

- Hech narsa yo'q, - qaytardi birinchi geolog. - Bekorga ovora bo'ldik. Siz ham, biz ham.

- Men o'zi ishonmagan edim, - dedi ikkinchi geolog. - Shunday narsa yotadi-yu, shu paytgacha hech kim bilmaydimi? Innaykeyin,

Mahmud aka bilan bir-ikki marta kelganman bu yoqqa. Biron narsa bo'lsa izi chiqardi shu paytgacha. Ota, endi bu ishni

yig'ishtiring. Foydasi yo'q.

- Nima? - so'radi Nazir ota tushunmay.

- Bu tashvishni qo'ying endi, bundan sizga foyda yo'q deyaipman, - dedi yana ikkinchi geolog.

Nazir otaning yuziga qon quyilib ketdi. Bir siltanib o'rnidan turdi.

- Men foyda uchun yurganim yo'q, uka! - dedi bo'g'iq ovoz bilan. - Men... O'g'lim...

- O'g'lingiz adashibdi, ota, - dedi birinchi geolog. - Xafa bo'lmang. Adashmasa, kon topadi-yu, indamay ketaveradimi? Tag'in urush mahali bo'lsa! Metalldan ham qimmat narsa bormidi u paytda?

Nazir ota o'zini bosib oldi. Alamini yutib, so'radi

- Balki... balki u asboblarning adashgandir?

- E, ota, - dedi ikkinchi geolog. - Bu asbobni chiqargan odamga Davlat mukofoti berishgan. Nima deyapsiz o'zi?! Xafa bo'lmang, o'g'lingiz adashgan. Qani ketdikmi, Sobir? Boyagi toshlar qani?

- Ryukzakda. Ketdik, - dedi birinchi geolog. - Ota, ketasizmi?

Nazir ota javob bermadi.

- Xafa bo'lmang. Bu faqat bizning taxmin, - dedi birinchi geolog Nazir otani yupatgan bo'lib va orqasidagi ryukzakka ishora qildi.

- Mana bu toshlarni yana tekshiramiz boshqarmada.

Nazir ota turgan joyida qotib qolgan edi, bu gaplarni eshitmadi ham hatto. Bir mahal u boyagi oyog'i tagiga tushgan yong'oqdek toshni qo'liga oldi va unga sehrli bir narsaday tikildi.

- O'g'lim! O'g'lim!.. - u bir narsa demoqchi bo'lib geologlar ketgan tomonga o'girildi, lekin ular ancha olislab ketishgan edi, gapi chala qoldi.

Toshni puflab-puflab changini qoqdi, qiyiqchasining uchiga tugdi, keyin nima qilishini bilmay turib qoldi. U endi ancha tinch edi, yuragi ham boyagidek gupillab urmasdi, qo'llari ham titramasdi, lekin qulog'i tagida geologlarning gaplari hamon jaranglab turardi.

"Mana, o'g'lingni ham ko'rding, - dedi o'ziga istehzo bilan. - Endi nima qilasan?"

U savoliga javob topolmadi, bitta-bitta qadam tashlab, boyagi o'tirgan joyiga keldi, choponining etaklarini yig'di-da, ustiga chordana qurdi.

Qorong'i tusha boshladi. Dam sarg'ayib, dam qizarib turgan chinor barglari qoraydi. Allaqaerda chigirtka chirillab qoldi.

Qayoqdandir paydo bo'lgan zaxcha Nazir otaning boshi ustidan silkinib o'tib, chinorning qurigan shoxiga qo'ndi, bir-ikki qanot qoqib yana g'oyib bo'ldi. Dala tomondan bo'g'ilib ma'ragan qo'y ovozi eshitildi.

Nazir ota qosh qorayishini uncha xushlamasdi, shunday paytda yo'lda yoqi begona joyda bo'lishni yomon ko'rardi. Lekin hozir u bunga e'tibor bermadi, hatto qorong'i tushganini sezmedi ham. U o'ylardi, ammo nimalarni o'ylayotganini o'zi bilmasdi. Ko'zlari hech narsani ko'rmas, bir nuqtaga qadalgan, bo'shashgan qo'llarni tizzalariga tashlab beparvo o'tirardi. Endi uning uchun hech narsaning qizig'i qolmaganday edi.

Oradan ancha vaqt o'tdi. Nazir ota qo'zg'almadi, turgisi kelmadi. Bir mahal dala tomondan ot dupuri eshitildi. U borgan sari yaqinlashib kelib, Nazir otaning oldidan o'tib ketdi. Chol parvo qilmadi. Keyin kimdir qichqirdi

- Nazir hoy, hoy Nazir!!!

Safar ota edi uni qidirayotgan. Sekin o'rnidan turdi, choponini qokdi. Shu payt o'rtog'ining o'zi ham kelib qoldi.

- Qayoqda qolding, Nazir! - dedi u zarda bilan otdan tushib. - Qidirmagan joyimiz qolmadi. O'tan qishloqqa ketdi. Nima qilib o'tiribsan?

Nazir ota indamadi.

- Qani, min otga.

- Eshitdingmi? - dedi Nazir ota eshitilar-eshtilmas.

- Givologlaring aytdi, - javob qildi Safar ota.

- Ishongan edim juda. Juda ishongan edim. Metall deyishdi-ya, eshitdingmi?

- Eshitdim, - dedi Safar ota.

- Hazil gap emas bu. Tursun metallning planini chizgan ekan. Eshitdingmi?

- Eshitdim, eshitdim, - dedi Safar ota. - Qani yur endi, uyga ketdik.

Safar ota o'rtog'ini egarga o'tqazib, o'zi orqasiga mingashdi-da, yo'lga tushdi.

- Topildilarmi? Odamni qo'rqitib yubordingiz-a, aylanay, - dedi Safar otaning xotini ular o'tovga yetib kelishganda. - Qani, kira qolinglar ichkariga! Ovqatim ham tagiga olib ketdi.

Ko'p o'tmay O'tan keldi. U bilan Zulayho mingashib kelgan ekan.

Bobosini ko'rib bag'riga o'zini tashladi va yig'lab yubordi.

- Yig'lama, bolam, yig'lama, - dedi nevarasining yig'isini o'zicha tushunib Nazir ota. - Adang bekorga chizmakashlik qilib ketmagan. Shu gal topilmadi, keyingi gal albatta topiladi. Nima deysan, Safar?

Safar ota, o'rtog'ining bu qat'iy gapi ta'sir qildimi o Zulayhoni ovutgisi keldimi, dedi

- Bo'lmasa-chi! Topilmay qayoqqa boradi, topiladi!

Shundan keyin ancha kun o'tdi. Bu vaqt ichida Nazir ota ikki marta Toshkentga tushib chiqdi. Lekin foydasi bo'lma-di. Na boshqarma boshlig'i Saidovni, na Qodirovni ko'roldi. SekretarKj qiz ikki borganida ham ularni komandirovkada, dedi.

Tekshirishga borgan geologlar bilan esa uchrashgisi kelmadi.

- Sirasini aytganda, - dedi Saksonboy ota, - sen aql bovar qilmaydigan ishga qo'l urding. To'g'ri, sen o'zingcha haqsan. Kim farzandiga qayishmaydi? Sening o'rningda men bo'lganimda, men ham shunday qilardim. Hamma ham shunday qilardi. Lekin geologlarning ham ishonish kerak. Topilsa ularga ham foyda-ku! Hammaga foyda. Yo'qni yo'q, deyishdi. Endi o'zingni qiynama. Zulayho ham yotig'i bilan xuddi shu fikrni aytdi.

Nazir ota ko'nganday bo'ldi. Lekin boshqarma boshlig'i bilan Qodirov komandirovkadan qaytganda yana bir shaharga tushib chiqishni ko'ngliga tugib qo'ydi. Oradan yana to'rt kun o'tdi. Beshinchi kuni ertalab Nazir ota shaharga borishga ahd qilib o'rnidan turdi. Ammo borishga to'g'ri kelmadi. Nazir ota nevarasini maktabga jo'natib, so'rida erinibgina nonushta qilib o'tirgan edi, O'tan to'rt kishini boshlab kelib qoldi. Bular orasida Qodirov bilan birinchi geolog ham bor edi. Nazir ota o'zini yo'qotib qo'ydi, ko'zlari

pirpirab, nima deyishini bilmay qoldi.

- Mana, ota, keldik, - dedi Qodirov unga qo'lini uzatib. - Bu jiyaningiz hol-jonimga qo'ymadi. O'zimiz ham kelmoqchi edik-ku, lekin mahkam yopishib oldi, tez borasizlar deb.

Nazir ota quvonch bilan O'tanga qaradi.

- Men... men endi boray... Maktabda ishim bor edi, - dedi O'tan uyalib va tez ko'chaga chiqib ketdi.

Nazir otaning sevinchi shu qadar katta ediki, uni to'xtatish esiga ham kelmadi.

- Sobirjon olib borgan toshlarda bir gap borga o'xshaydi, - dedi Qodirov karavotga omonatgina o'tirib. - Yana bir tekshiramiz.

O'zingiz yordam berasiz-da, bizga.

- Bo'lmasa-chi! Bo'lmasa-chi! - dedi shoshib Nazir ota.

- Bo'lmasa ketdik. Bu gal uzoqroq bo'lamiz. Kovlashga to'g'ri keladi.

- Hammasiga tayyorman. Ketmon olib olaymi? Qodirov kuldi.

- Yo'q, kerak emas. Hamma asboblar o'zimizda bor. Omadimiz kelsa ajab emas, ota.

- Koshkiydi.

- Qani, yuring bo'lmasa.

Nazir ota darrov kiyindi. Geologlar kelgan mashina shu zahotiy oq toqqa tomon yo'l oldi.

Toqqa yetib kelib, bukri chinorning ro'parasiga palatka qurishdi. Mashina orqasiga qaytdi.

- Mana, endi ishni boshlaymiz, - dedi Qodirov chinorga tikilib.

- Baribir men o'z fikrimda qolaman, - dedi Sobir. - Bekorga ovora bo'lamiz.

- Sen chinorga qaragin, Sobir, - dedi Qodirov. - Kuygan poyaga o'xshaydi. Ota, bu chinor anchadan beri bormi?

- Biz bolaligimizda ham shunday edi, - dedi Nazir ota. - Lekin nazarimda, bargi ilgari bunchalik emas edi. Qovjirab ketibdi bechora.

- Bor deb o'ylaysizmi? - so'radi Sobir.

- Bo'lishi mumkin, - dedi Qodirov. - Toshlarini qaerdan olding?

- Anavi tomondan, - Sobir Cho'pong'or tarafga ishora qildi. - Menimcha, bu toshlar nurash natijasida paydo bo'lgan. Aytgan edim sizga. Ostki qavat sostavida har narsa bo'lishi mumkin. Lekin bu shu yerda biron narsa bor, degan gap emas-ku?!

- Negadir men qiziqib qoldim. Tekshiramiz.

- Ixtiyoringiz, - Sobir yelkasini qisdi. - Lekin men o'z fikrimni aytdim.

Nazir ota ularning gaplarini eshitib, indamay turardi. To'g'rirog'i, nima deyishni bilmasdi. Balki Sobir hakdir? Balki... u shu "balki"ni o'ylab, yuragi hapriqib tushdi. "Xudo o'zing qo'lla!" - deb yubordi ichida. Bu iltijoning kuchiga aslida beparvo bo'lsa ham, boshqa so'z topolmadi o'zini tinchitishga.

- Biz endi ketdik, ota, - dedi Qodirov.

- Men nima qilay? - so'radi shoshib Nazir ota.

- Sizmi? Siz endi dam olib o'tiring. Hali bir osh qilib berasiz.

- Choy qo'yib tursinlar, - dedi Sobir.

- Xo'p, o'g'lim, xo'p, - dedi Nazir ota.

Uning uyga ketgisi kelmasdi, shularning oldida bo'lgisi kelardi.

- Chelak bor, choynak bor, - dedi kimdir. - Faqat suv yo'q. Suvni ko'proq olib keling, yuvinishga ham kerak bo'ladi.

Geologlar Cho'pong'or tomonga ketishdi. Nazir ota palatka oldida qoldi.

"Endi nima deysan, Zaynab? - dedi u tabassum bilan xayol surib. - Aytganingni qildim. Lekin sen aytmasang ham qilardim.

O'g'ling katta odam ekan, bilmas ekanmiz. U yozib ketgan kichkina qog'ozga shuncha odam qiziqib qoldi. Maqtansang arziydi o'g'ling bilan. Ishqilib, biron narsa chiqsinda. Chiqsa butun qishloqqa osh beraman. Tursunning hamma o'rtoqlarini chaqiraman. Keksalarni ham chaqiraman. Nazir bog'bonning o'g'li kanaqaligini bilib qo'yishsin".

- Suv qaerda ekan? - dedi ovozi chiqarib Nazir ota. - Tog' etagida doim suv bo'lardi. Bu yerda yo'q. Qurib yotibdi. Qaerda bo'ldiykin?

U o'ylab-o'ylab, Safar otaning o'tovini esladi.

- Shu yoqqa boraman, quduqni ochgandir? Innaykeyin, bilib qo'ysin u ham. O'tan omon bo'lgur, zap yigit bo'libdi-da. Qaeridir Tursunga o'xshaydi. Ko'zimi yo kulishimi?

Nazir ota qaeri o'xshashini aniqlay olmadi. Qandaydir shirin xayol miyasiga kelib kulib qo'ydi. Keyin palatkadan chelakni oldida, o'tovga qarab ketdi.

"Yaxshi bo'lardi, - O'yladi u yo'l-yo'lakay. - Eshushi joyida. Og'ir. Zulayho ham tuzuk. Xuddi oyisiga o'xshaydi. Qaqildoq emas. Mehnatkash. Safar bilan bir gaplashish kerak. Lekin oldin u gap boshlasa bo'lardi. Men gapirsam, nevaramning sha'niga yaxshi emas. U gapirsa tuzuk bo'lar-di...".

O'tovga kelganda kun tikkaga ko'tarilgan edi. Lekin u issiqni sezmedi. Faqat ozgina cho'lladi. "Suv chatoq jan, - xayolidan o'tkazdi u. - Safarga qiyin. Yil - O'n ikki oy qirda. Bu joylar ham holva, bir amallab topsa bo'ladi suvni. Qirda yomon".

It huridi. O'tovning ichidan Safar ota chiqdi.

- Yot, Yo'lbars. Tanimadingmi? Kelaver, kelaver. Mashina o'tganini ko'ruvdim boya. Sen ekansan-da?

- Yana kelishdi! - dedi Nazir ota. - Endi turadigan bo'lib kelishdi. Bilasanmi, O'taning olib kelibdi!

- Yopiray-a? - Safar ota sevinib ketdi. - Shaharga shuning uchun tushgan ekan-da?

- Ha, - dedi Nazir ota. - Omon bo'lsin. Yaxshi yigit bo'libdi. Suving qaerda? Choy qilib beray ularga.

- Suv bu yoqda, - Safar ota o'rtog'ini quduqqa boshladi. - Ishqilib niyatingga yet, o'rtoq!

- Yetadiganga o'xshayman.

- To'xta, menga qara, - dedi Safar ota qudukdan suv tortar ekan, - shu yerdan o'sha yoqqa shu chelakda olib bormoqchimisani?

- Ha, nima edi?

- Esingni yepsan! Ma'pir, ho Ma'pir! Ichkaridan Safar otaning xotini chiqdi.

- Meshni olib chiq! Ha, mana bu joyida, chelakda suv olib borib bo'ladimi?!

- Yaxshimisiz, yanga? - so'radi Nazir ota.

- Rahmat. Ishingiz yurishib ketibdida.

- Shunaqaga o'xshaydi.

- Ishqilib o'g'lingizning arvohi yor bo'lsin!..
- Suvni men olib borib beraman, - dedi xotinining gapini bo'lib Safar ota.
- Yo'q, - dedi Nazir ota. - Men o'zim. Shunga ham ovoragarchilikmi? Ishingdan qolma.
- Hech narsa qilmaydi, - dedi Safar ota otga egar urib.
- Men o'zim, - dedi Nazir ota. - Otni qo'y. Hali ko'p kelaman. Boshqa safar. Hozir o'zim olib bormasam, ko'nglim joyiga tushmaydi.
- O'zing bilasan, - Safar ota ortiqcha qistamadi. - Qani endi yur, bir-ikki piyola choy ichib ol.
Nazir ota palatkaga qaytib kelganda geologlar hali tushishmagan edi. Darrov shox-shabba yig'ib, choy qaynata boshladi. U hozir har qanday ishga tayyor edi. Ishqilib ular oldingi safargidek ketib qolishmasa bo'ldi. Sobirning o'shandagi qo'pol gaplari ham xayolidan ko'tarilgan edi. Hafsa bilan choynak tagiga shox tashlar ekan, uning chirsillab yonishidan, o't-o'lan, qo'y-qo'zi hidini keltirib dimog'iga urilayotgan tutundan zavqlanardi.
"Nimadir qilmoqchi edim shu yerda yana, - esladi u peshanasidagi terni sidirib. - Nimadir qilmoqchi edim. Nima edi? E, bo'ldi..."
U o'rnidan turib, chinorga qaradi. Uning nimrang barglari oftobda oltin tangalarday yaraqlab turardi.
Nazir ota meshdan chelakni yarim qilib suv soldida, qayoqdan qoyaga chiqishni bilmay, Cho'pong'or tomonga yurdi. G'orga yetganda tepadan Qodirov bilan Sobirjon tushib kelishdi.
- Qayoqqa ketyapsiz? - so'radi Qodirov. Nazir ota chinorni ko'rsatdi.
- Suvsab qolibdi.
- Qani, men ichib olay, - Sobir cholning qo'lidan chelakni oldi. - O'h-ho! Muncha muzdek?
- Quduqning suvida, - dedi Nazir ota g'urur bilan. - Tag'in meshda olib keldim. Ko'p ichmang, o'g'lim, tomoq og'rig'i bo'lib qolasiz. Choy tayyor.
- Bu suv unga nima bo'lardi, ota, - dedi Sobir chelakni qaytararkan. - Baribir qurib qoladi. Qayting, uzimizga kerak bo'ladi.
- Mayli, sug'orsinlar, - dedi Qodirov. - Lekin bu suv urvoq ham bo'lmaydi.
- Harnada, olib boraychi. Xo'sh, nima gap?
- Hozircha hech gap yo'q, - dedi Qodirov. - Toshlardap olib tushyapmiz. Ko'raylikchi maydalab.
Chinor birpasda suvni shimib oldi.
"Bunga ham qiyin bo'пти yoz issiq kelib, - xayolidan o'tkazdi Nazir ota, keyin qurigan shoxni sindirib ko'rdi. - Yo'q, bu yog'i ho'l. Hali ko'p yashaydi. Hali mendaqadan o'ntasini ko'radi".
Nazir ota shu gapni aytdi-yu, cho'chib ketdi, lekin darrov o'zini o'nlab oldi.
"Men ham ko'p yashayman hali, - dedi shivirlab. Bu gapni o'ziga yo chinorga aytdimi - bilish qiyin edi. - Hali qiladigan ishlarim ko'p. O'zim bo'lmasam, hech kim qilmaydi. Ikkalamiz ham ko'p yashaymiz hali".
U pastga tushdi. Sobir palatkaning ichida ko'ylakchan cho'zilib yotardi. Qodirov qandaydir asbobni tekshirib o'tirardi.
- Qani, keling, ota, - dedi u. - Choydan iching. Suv chatoq ekan bu yerda.
- Ha, chatoq. Tog'lik joyda suv bo'lardi, hayronman bu yer nega bunaqa.
- Baland emasda tog', yemirilib ketgan. Qor kam turadi. Qani, choydan iching. Qand bilan iching. Ota, o'g'lingiz hech narsa demaganmidi-a, bu qog'oz haqida?
- Hech narsa demagan, - javob qildi o'ylanib Nazir ota. - Degan bo'lsa, eslab qolmasmidim. U o'zi juda kamgap edi. O'nta gapingizga zo'rg'a bitta javob olardingiz.
- Balki bitta-yarimta odamga gapirgandir?
- Oyisiga gapirganmikin?..
- Bir so'rab ko'ring, - dedi Qodirov.
- Oyisidanmi? -Ha.
- Oyisini... oyisining yilini o'tkazdim yaqinda.
- Kechirasiz, ota, - dedi xijolat tortib Qodirov. - Bilganim yo'q. Bir o'zingiz turasizmi?
- Nevaram bilan turaman. Endi nima qilmoqchisizlar?
Nazir ota gapni boshqa yoqqa burdi. Oilaviy hayotdan gapirishni u yoqtirmasdi. Qanday gap bo'lishidan qat'i nazar ko'ngli buzilardi.
- Endi birpas uxlaymiz, - dedi esnab Sobir. Qodirov kuldi. Nazir otaga bu gap ma'qul tushmagan bo'lsa ham, indamadi. Nima ham deya olardi u? Ular nima desa shunga ko'nishga majbur edi. Nima bo'lsa ham, u niyatiga yetsa bo'ldi.
Kechki payt geologlar ham tog'dan tushib yuvinib turishganda O'tan bilan otga mingashib Zulayho keldi. Ikkalovi ikkita katta tugun ko'tarib olishgan edi.
- Hormanglar, - dedi O'tan.
- Salomat bo'l, o'g'lim, - dedi Nazir ota sevinib. Qodirov yugurib borib, Zulayhoni otdan tushirdi.
- Nevarangizmi? - so'radi keyin Nazir otadan.
- Nevaram, - dedi jilmayib Nazir ota va Zulayhoga o'girildi. - Mening bu yerdaligimni qaerdan bilding?
- O'tan kitobga boruvdi, aytdi, - dedi Zulayho negadir qizarib. - Osh qilib keldim. Issiq hali.
- Yaxshi qilibsan, - dedi sevinib Nazir ota. - Rahmat, O'tan bolam. - O'tan jilmaydi. - Yigitlar, qani yeb olamizmi?
- Osh bo'ladi-yu, yemaymizmi?! - dedi Sobir.
Hamma kulib yubordi. Palatkaga kirishdi. Osh chindan ham hali issiq edi.
- O'zingiz qildingizmi? - so'radi Qodirov. - Juda shirin-ku?
- Zo'r! - dedi Sobir og'zini to'latib.
- Nevaram pazanda, - dedi g'urur bilan Nazir ota. - Hali shunday ovqatlar qilib beradiki sizlarga! O'tan, sen nega yemayapsan?
- Men yedim, - dedi O'tan.
- Yedim? Qaerda? O'tan shoshib qoldi.
- Uyda, uyda, - dedi keyin o'zini bosib olib va Zulayhoga qarab qo'ydi. - Oyim ham osh qilgan ekanlar.
- Shunday degin... Ha... Oyingniki boshqa, bu boshqa, - dedi Nazir ota. - Qani, yaqinroq o'tir. Oshing yaxshi bo'пти, Zulay.
- Zo'r! Zo'r! Choyxonapalov! - dedi yana og'zini to'ldirib Sobir.
Zulayho jilmaydi. Uning ikki ko'zi bobosida, ba'zida soch ostidan O'tanga qarab qo'yardi. Oshni birpasda yeb bo'lishdi.
- Rahmat, - dedi Qodirov ishtaha bilan papiros tutatarkan. - Yaxshi bo'ldi ovqat.

- Ketamizmi? - so'radi Zulayho idishlarni yig'ishtirib bo'lgach.
- Ketamiz, - dedi Nazir ota. - Ertalab kelaman.
- Juda shoshmang, - dedi Qodirov. - Bafurja kelavering.
- Ertaga nima qilib kelay? - so'radi Zulayho dam bobosiga, dam geologlarga qarab.
- Palovda! - dedi Sobir O'tanga ko'zini qisib. Gurr etib yana kulgi ko'tarildi.
- Hech narsa kerakmas, rahmat, - dedi Qodirov. - Ovora bo'lmang. Sobir hech kimga bilintirmasdan uni turtib qo'ydi, Keyin
- Ixtiyoringiz, nima qilsangiz shuni olib keling, - dedi.
- Men olib kelaman, - dedi O'tan.
Ko'p o'tmay Nazir ota bilan Zulayho otda, O'tan piyoda yo'lga tushishdi.
- Biznikida qolasiz, Nazir ota, - dedi O'tan yo'l-yo'lakay. - Joy yetadi. Dadam ham tayinlab yuborganlar.
- Yo'q, qololmayman, - javob berdi Nazir ota o'ylanib. - Zulayho, uyda bo'lganingda ham mayli edi. Bedana och qoladi.
- Don berganman, - dedi Zulayho.
- Dadam juda xafa bo'ladilar, - qo'shib qo'ydi O'tan. Nazir ota rozi bo'ldi. O'tovga yetib kelishganda, Safar ota ularning yo'lga qarab o'tirgan ekan.
- Yaxshi kelding, - dedi u otning jilovini ushlab. - Bemahalda qishloqqa qaytib nima qilasan? O'tov katta. Chaqchaqlashib yotamiz. Xo'sh, ishlar qalay?
Nazir ota qilgan ishlarining hammasini so'zlab berdi.
- Senga havasim keladi, - dedi Safar ota. - Kichkina qog'ozdan shuncha tashvish chiqarding-a!
- Odamda tashvish bo'lgani yaxshida, - dedi Nazir ota kulib. - Xuddi yoshargandayman. Tagimda zo'r ot bo'lsayu, yana uloqqa tushib ketsam...
- Uloqlar ham yo'q endi.
- Nega shunday-a? Yaxshi narsaku uloq, poyga...
- Kim biladi deysan, - dedi Safar ota. - Vaqt qolmayapti odamlarda nazarimda. Shungamikin? Qani, ichkariga kiringlar. Ma'pir, qani, olib kel narsalaringni!
Ular allamahalgacha gaplashib o'tirishdi. Oxiri Safar ota nimadir deb turib uxlab qoldi. To'rda ayollar yotishdi. Nazir ota o'rtog'ining yoniga cho'zildi. Ammo uyquasi kelmadi. Qancha yotdi shu alpozda bilmaydi, bir mahal O'tanning shivirlagan ovozi eshitib qoldi.
- Zulay, uxladingmi?
- Yo'q, - dedi Zulayho ham shivirlab. - Uyqum kelmayapti.
- Mening ham. Nimalarni o'ylayapsan?
- Bilmayman. Lekin ko'p narsalarni o'ylayapman. Senchi?
- Men ham, - dedi O'tan xo'rsinib. - Hozir negadir geolog bo'lgim kelib ketdi.
- Nega?
- O'zim ham bilmayman.
- Nima deysan, topisharmikin?
- Bilmadim.
- Topishsa yaxshi bo'lardi. Dadamning fikri-zikri shunda bo'lib qoldi. Topishmasa juda eziladi.
- Dadang juda yaxshi odam.
- Bilaman.
- Yur, eshikda gaplashib o'tiramiz. Uyg'otib yubormaylik tag'in.
- Sening dadangni to'p bilan ham uyg'otib bo'lmasa kerak, - dedi Zulayho. - Xurrak otishini qara!
Ikkovlari piqillab kulib yuborishdi. Nazir ota ham jilmayib qo'ydi.
- Chiqamizmi? - so'radi O'tan.
- Mayli, yur.
Ular eshikka chiqishdi.
- Shu yerda o'tiramiz, - dedi Zulayho. - Qo'rqaman,
- Mayli. Sovuqmasmi?
- Yo'q. Oyni qara, judayam yorug'-a? O'tan, sen nima deysan, undagi dog' nimaga o'xshaydi?
- Bilmadim. Nimaga o'xshaydi?
- Menimcha, yer shariga o'xshaydi. Qara, huv anavi osilib tushgani. - Afrika, uning tepasi - Amerika, bu yoqdagi yapalog'i biz, tagida Hindiston. Yo noto'g'rimi?
- Hech o'ylamabman shuni.
- Men doim o'ylayman. Nuqul kechasi uyg'onib ketib oyga qarasam, shuni o'ylayman. Qiziq-a, tepadan turib bu yer yuzini ko'rsang, tomosha qilsang?..
- Kosmonavtlar ko'rishgan.
- Biz ham ko'rarmikanmiz-a?..
- Nega ko'rmas ekanmiz? Bir kun kelib ko'ramiz. Buning uchun ko'p sayohat qilish kerak.
- Men sayohatni yaxshi ko'raman.
- Yaxshi ko'raman? - O'tan kuldi.
- Nega kulasan?
- Sen hali Yettiyoqani ham tuzukroq ko'rganing yo'q-ku!
- Ko'rganman! Hammasini bilaman!
- Bilsang, Cho'pong'orni nega Cho'pong'or qo'yishgan? Qani, aytchi?
- Aytaymi?
- Ayt.
- Bir bor ekan, bir yo'q ekan, qadim zamonda bir cho'pon bor ekan. Kunlarning birida poda boqib o'tirsa, juda ko'p otliq paydo bo'lib qolibdi. Ular ov qilib yurishgan ekan, toqqa yaqinlashishganida birdan shamol turib, bir otliqning yuzidagi parda uchib ketibdi. Cho'ponning og'zi ochilib qolibdi. Otliq - oy desa oydek, kun desi kundek qiz ekan.

Nazir ota nevarasining ertagini eshitar ekan, ich-ichidan zavqlanardi - uning quyuq ovozi, so'zlarini cho'zib-cho'zib aytishi kampirini eslatardi. Shuning uchun yonboshlab, yaxshiroq quloq soldi.

- Ko'ribdi-yu, oshiq bo'lib qolibdi, - davom etdi Zulayho. - Yugurib borib yerdan pardani olibdida, qizga eltib beribdi. Qiz ham uni ko'rib, xushtor bo'lib qolibdi. Shu-shu ikkalovi bir-birini ko'rolmas ekan. Yigit ham o'zi kelishgan, qora ko'z, qora qosh, alpdek yigit ekanda. Lekin kun o'tgan sayin ularning uchrashishlari qiyinlasha boribdi. Qiz podshoning qizi ekan. Shunday bo'lsa ham, ota-onasini aldab, bir amallab, cho'pon bilan uchrashib yurar ekan. Shunda cho'pon o'ylab-o'ylab mana shu g'orni qazibdi. Shu yerda uchrashadigan bo'lishibdi. Ammo bu ham uzoqqa cho'zilmabdi. Podshoning ayg'oqchilari ularni tutib olishibdi. Keyin, podshoning qiziga osiladigan senmisan, deb cho'ponning ikkala oyog'ini chopib tashlashibdi. Shundan keyin cho'pon nima qilishini bilmay, shu g'orda temirchilik qila boshlabdi. Shu yerda o'libdi. U yasagan qilichlar sinmas, pichoqlar esa toshni ham kesar ekan. Lekin hech kim uning otini bilmas ekan. Podshoning qizi ham. Shu tomonlarda bo'lgan odamlardan u nuqul - "Cho'pon tirikmi?" - deb so'rarkan. Shu-shu bu g'or "Cho'pong'or" bo'lib ketibdi.

- Yaxshi ertak-a, - dedi O'tan.

- Odamlar yomon ertak to'qiydimi? - dedi Zulayho. - Cho'ponni aytmaysanmi? Hozir bunaqa odamlar yo'q.

- Qaerdan bilasan, balki bordir? Zulayho kuldi.

- Bittasi senmi?

- Balki mendirman. Menga qara, Zulay, temirchilik qilgan, dedingmi cho'ponni?

-Ha.

- Temirni qaerdan olgan ekan?

- Bilmadim.

- Geologlarga aytish kerak buni. Temir bo'lsa, demak, Tursun akam adashmaganlar... Nega shu ertak ilgariroq esingga kelmadi?

- Qaydam... Sira ham xayolimda yo'q. Buvim aytib bergan edilar.

- Geologlarga aytish kerak. Ertaga albatta aytaman. O'tan o'ylanib qoldi. Keyin, sekin dedi:

- Bilasanmi, Zulay, men albatta geolog bo'laman.

- Geolog? - hayron bo'lib so'radi Zulayho.

- Ha, geolog. Ishonmaysanmi?

- Nega? Ishonaman. Senga doim ishonaman. Toshkentga tushib, yaxshi ish qilding. Senga ishonaman.

- Anavi... anavi kungi gaplarimga ham-a?

- Ha, ularga ham...

- Rostdanmi?

- Rost. O'tan. Faqat, faqat dadam tinchib olsinlar, xo'pmi?

- Xo'p. Dadang tinchiydilar. Kon albatta topiladi. Yuragim sezib turibdi. Topiladi. Ana o'shanda...

- Bo'ldi, O'tan, qo'y...

- Xo'p, qancha desang ham poylayman.

"Tuzuk-ku bular, - dedi ichida kulib Nazir ota. - Tag'in sen bularni qovushtirmoqchi bo'lib yuribsan, xom kalla. Darvoqe, endi bo'ldi, qolgan gapni to'ydan keyin gaplashamiz".

U jo'rttaga yo'taldi va o'rnidan turib, o'tovdan chiqdi. Utan qayoqqadir qochdi.

- Ie, shu yerdamiding? - dedi Nazir ota nevarasining pitirlab qolganini ko'rib.

- Eshikka, eshikka chiquvdim, - dedi Zulayho tutilib.

- Endi kir, yot, - Nazir otaning jahli chiqqanday bo'ldi. - Qiz bola erta turishi kerak. Uxla.

Zulayho lip etib o'tovga sho'ng'idi.

"Anavisi qayoqqa qochdi? - dedi o'zicha atrofga alanglab Nazir ota. - Ha, mayli, uning eshikda bo'lgani ham yaxshi. Demak, ertak ham bor ekan kon haqida. Qiziq, nega men eshitmaganman?".

U joyiga kirib yotdi va darrov uyquga ketdi. Zulayho Syushini ko'tarib unga mo'raladi. Eshikdan tushayotgan oy shu'lasi shunday uning yuzini yoritib turardi. Ammo u uxlardi. Yuzlarida, mo'ylovining uchlari tegib turgan lablarida tabassum o'ynardi.

* * *

Ertalab Nazir ota geologlar yoniga qaytdi. Ertasiga ham kunni shu yerda kech qildi. Indiniga ham. Uning qiladigan ishlari murakkab emasdi. Suv tashirdi, choy qaynatardi. Ba'zan geologlar tog'dan olib tushgan toshlarni rangiga qarab ajratardi. Lekin nima qilmasin, xayoli bir narsa bilan band edi "Chiqarmikin!" - O'ylardi u nuqul.

Geologlarning ham xayolida shu fikr edi. Ertalab tongda chiqib ketishadi, tushda qaytishadi. Yuvinib, choy-poy ichib, yana ketishadi. Ba'zan tushlikka ham tushishmaydi. Uch-to'rt kun ichida to'rt-besh joyni portlatib ko'rishdi, natija bermadi. Keyin olisroq joylarni tekshira boshlashdi. Tog'ning orqa tomoniga o'tishdi. O'tan boshlab bordi. U yerdan g'alati toshlar olib ketishdi. Ancha-munchasi shaharga analiz uchun jo'natildi.

Ammo analiz razvedka qilingan plastlarda xrizokolla elementlari juda oz protsentni tashkil etganini ko'rsatdi. Qodirov yangi joylarni tekshirishga qaror qildi. Shu maqsadda Yettiyoqning geologik kartasini tuzib chiqishdi, ammo natija hamon qoniqarsiz edi. Sobirning borgan sari xunobi osha boshladi.

- Sizga hayronman, - derdi u ikki gapning birida. - Ota-ku, ma'lum. Biz qancha ko'p bo'lsak, unga shuncha yaxshi. Har holda umidi bor. Shuning uchun atrofimizda parvona. Anavi O'tan ham. Tag'in ertak to'qishganini aytmaysizmi?! Temirni shu yerdan topmagandir har holda, o'sha cho'pon. Shuncha tekshirdik, bo'ldida. Hech balo yo'q. Yana ketgingiz kelmaydi-ya.

Qodirov ko'pincha indamasdi. Miyig'ida kulib qo'ya qolardi. Boshqalar ham gapga aralashishmasdi. Nazir ota esa biror narsani bahona qilib palatkadan chiqib ketardi. Gapirsa, Sobirning jig'iga battar tegishini bilardi, usiz ham o'zi ahvol chatoq edi.

Palatkadan chiqib, u-buga unnardi. Iloji boricha tezroq kunni kech qilishga, miyasini chulg'ab kelayotgan tashvishli fikrlardan o'zini chalg'itishga harakat qilardi. Tezroq erta bo'lishini kutardi. Nazarida, go'yo tong bilan xushxabar kelayotgandek bo'lardi.

Bukri chinor barglari unga tongni eslatardi, yoniga ko'tarilardi. Kun chiqishdan kun botishgacha yaraqlab turgan barglarga tikilib, ko'ngli bir oz tinchirdi.

- Oz qoldi, juda oz qoldi, - derdi u chinorning bukri tanasiga suyanib. - Yaqinda chiqib qoladi. Ana o'shanda ko'rsan. To'y qilamiz. Butun qishloqqa osh berib, to'y qilamiz. Kuyovni otga mindirib, shu yerdan aylantirib o'taman. Halkka uloq berarman shu yerda. Bitta qo'y nima bo'lib-di? O'nta qo'yga ham kuchim yetadi. Marrani sening tagingga belgilayman. Odamlar ko'rsin seni ham.

This is not registered version of TotalDocConverter

Rangim kuni qo's, unda o'z baxtaringga qo'n yig'ildi. Odamlar ko'rsin seni ham. Ko'karib turgan narsa ko'zni quvontiradi. Qani endi hamma narsa ko'karib tursa! Odam ham bamisoli daraxt. O'sadi, ulg'ayadi, keyin... keyin so'liydi. Yoshi yetib so'lisa mayli - alam qilmaydi unda. Yoshi yetmasa - og'ir. Judayam og'ir. Nima qilishingni bilmaysan. Dunyo ko'zingga qorong'i ko'rinadi, yashaging kelmaydi. O'z pushtingdan bo'lgani so'lisa bundan ham dahshat. Iloji bo'lsa-yu, uning dard-hasrati senga o'tsa, yo bor kuchingni yig'ib uni yana ko'kartirsang... Men shunday qilmoqchiydim, shuning uchun bu yoqqa keluvdim. Sen ko'karding. Qani endi u ham ko'karsa! Yuzlariga yuzimni qo'ysam, ko'zlaridan, peshonasidan o'psam! Bag'rimga bosib, to'yib yig'lasam! Yo'q, yig'lab nima qilaman? Yoningga ko'tarilib qichqirsam, butun qishloqqa jar solsam. "Og'aynilar!" desam. "Mana mening o'g'lim, u tirik", desam.

Bir kuni u odaticha bukri chinor tagida turganda olisdan portlash ovozi eshitildi. Tog' guldurab ketdi. Nazir ota quloq soldi.

Portlash ertalab O'tan geologlarni boshlab ketgan tomondan - tog'ning etagidan eshitildi.

- Boshlandi, - dedi u faxr bilan. - Boshlandi! O'g'lim, xursandmisan?

Uning savoliga javobday, bir gala qush gur-r-r etib havoga ko'tarildi. Yettiqoya ustida uch-to'rt aylanib, g'oyib bo'ldi.

- Bularni ham tashvishga solib qo'ydim, - dedi Nazir ota achinib. - Lekin na chora? Odamda bironta tashvish bo'lishi kerak.

Tashvishsiz odam - qanotsiz qush!

U xursand edi. Hayajon va umid to'la bunday tashvishli damlar qancha davom etadi - haftalarmi, oylarmi yo umrining so'ngigachami - O'ylamasdi. U shu damlarga yetishganidan xursand edi va ko'zlarini geologlar ketgan tomondan uzmasdi. Ammo kekxa tog'ning qoyalaridan boshqa hech narsa ko'rinmasdi. Qoyalar esa xuddi shu chol kabi nurab borayotganiga qaramay, hamon viqor va salobat bilan ko'kka bo'y cho'zib turardi.

1965